



YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

KONSTITUTSIYAVIY REFERENDUM

2023-yil 30-aprel

YXHT/DIIHB Referendumni kuzatish bo'yicha cheklangan missiya
Yakuniy hisobot



Varshava
2023-yil 21-dekabr

MUNDARIJA

I.	QISQACHA MA'LUMOT	1
II.	KIRISH VA MINNATDORCHILIK SO'ZLARI	4
III.	DASTLABKI SHART-SHAROITLAR VA SIYOSIY JIHATLAR.....	5
IV.	HUQUQIY BAZA	8
V.	REFERENDUM TIZIMI	10
VI.	REFERENDUMNI BOSHQARISH	11
VII.	SAYLOVCHILARNI RO'YXATGA OLISH.....	13
VIII.	REFERENDUM KAMPANIYASI	15
IX.	OVOZ BERISH KAMPANIYALARINI MOLIYALASHTIRISH.....	17
X.	OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI.....	18
A.	OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MUHITI	18
B.	HUQUQIY BAZA	19
C.	OAV MONITORINGI NATIJALARI	21
XI.	REFERENDUMDA NIZOLARNI HAL QILISH MASALASI.....	21
XII.	FUQAROLAR VA XALQARO KUZATUVCHILAR	23
XIII.	ETNIK OZCHILIK VAKILLARINING ISHTIROKI	24
XIV.	REFERENDUM KUNI.....	24
XVII.	TAVSIYALAR	27
A.	USTUVOR MAZMUNDAGI TAVSIYALAR	27
B.	BOSHQA TAVSIYALAR	28
I ILOVA	YAKUNIY NATIJALAR.....	31
II ILOVA	REFERENDUMNI KUZATISH BO'YICHA CHEKLANGAN MISSIYANING KUZATUVCHILARI RO'YXATI	32
	DIIHB HAQIDA.....	33

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYAVIY REFERENDUM
2023-yil 30-april

YXHT/DIIHB Referendumni kuzatish bo‘yicha cheklangan missiyaning yakuniy hisoboti¹

I. QISQACHA MA’LUMOT

YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi (DIIHB) O‘zbekiston Respublikasi hukumatining taklifiga ko‘ra va Ehtiyojlarni baholash missiyasi tavsiyasiga asosan 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tadigan konstitutsiyaviy referendum uchun Referendumni kuzatish bo‘yicha cheklangan missiyasini (RKCHM) jo‘natdi. DIIHB RKCHM referendum jarayonining YXHT majburiyatlari, demokratik saylovlar bo‘yicha boshqa xalqaro majburiyatlar va standartlar, shuningdek, milliy qonunchilikka muvofiqligini aniqlash maqsadida o‘tkazildi.

O‘zining 1-mayda e‘lon qilgan Dastlabki natijalar va xulosalar to‘g‘risidagi bayonotida DIIHB RKCHM “konstitutsiyaviy referendumga texnik jihatdan juda yaxshi tayyorgarlik ko‘rilgan hamda u turli huquq va erkinliklarni mustahkamlashga yo‘naltirilganligi keng targ‘ib qilindi,” – degan xulosaga keldi. Konstitutsiyaga kiritiladigan o‘zgarishlar loyihasi bo‘yicha maslahatlashuv jarayoni ancha keng qamrovli o‘tkazilgan bulsa-da, unda ayrim munozarali masalalar bo‘yicha ochiq munozaralar kuzatilmadi va o‘zgartirishlarga qarshi biror bir uyushgan oppositsiya bo‘lmadi. Bu referendum so‘nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlarning davomi sifatida joriy qilingan, ammo unda haqiqiy siyosiy plyuralizm va raqobat bo‘lmadi. Bu holat esa, muqobil qarashlarni yanada rag‘batlantirish, mustaqil fuqarolik jamiyati uchun imkoniyatlar yaratish va cheklanib qolayotgan asosiy erkinliklarni hurmat qilish zarurligini yana bir bor e‘tirof etdi. Huquqiy asoslarga ba‘zi texnik takomillashuvlar kiritildi, shu bilan birga jarayonning asosiy jihatlarini to‘g‘ri tartibga solish uchun ularni xalqaro me‘yorlarga moslashtirish uchun qo‘shimcha sa‘y-harakatlar talab etiladi. Markaziy saylov komissiyasi o‘z vakolatlarini samarali amalga oshirdi, biroq quyi bo‘g‘in komissiyalarida betaraflik va mustaqillik yetishmadi. Hukumat ovoz beruvchilar uchun referendum kuni tartib-qoidalar bo‘yicha keng qamrovli axborot targ‘ibot va tashviqotlarni tashkil qildi va ayrim o‘zgartirishlar bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib bordi, biroq ommaviy axborot vositalari xolis va muvozanatli axborot taqdim etilmadi, bu esa ovoz beruvchilarning ongli tanlov qilishlariga xalal berdi. Cheklangan miqdordagi saylov uchastkalarida tashrif buyurildi, saylov uchastkalarida ovoz berish jarayoni tinch o‘tgan bo‘lsa-da, ovoz berish va sanab chiqish jarayonida turli jiddiy qonunbuzarliklar kuzatildi va bu jarayoning adolatli kechmaganligidan dalolat berdi.

Referendum yo‘li bilan Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritilishi uchun ro‘yxatga olingan barcha ovoz beruvchilarning kamida 50 foizi ushbu referendumda ishtirok etishi va ovoz berishda ishtirok etganlar orasida taklifni ko‘pchilik ovozi ma‘qullashi kerak bo‘ladi. DIIHB RKCHMning ba‘zi suhbatdoshlari bu o‘zgartirishlarni gender tenglik va fuqarolar, shu jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarga nisbatan ijtimoiy majburiyatlarni rag‘batlantiruvchi muayyan huquq va erkinliklar uchun foydali deya ta‘kidlab, buni olqishladilar. O‘zgartirishlar loyihasi bo‘yicha maslahatlashuv jarayoni ancha uzoq davom etgan bo‘lsa-da, unda ba‘zi munozarali masalalar, masalan, prezidentlik muddatini uzaytirish va amaldagi prezidentga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan muddatlarni nollashtirish kabi masalalar bo‘yicha ochiq munozaralar bo‘lmadi. Konstitutsiyaning qariyb uchdan ikki qismiga taalluqli taklif etilayotgan bu o‘zgartirishlar bir to‘plam sifatida ovozga qo‘yildi, bu esa ovoz beruvchilarga o‘zgartirishlarda ko‘rsatilgan har bir alohida masala bo‘yicha tanlov qilish imkoniyatini bermaydi va bu narsa xalqaro ilg‘or amaliyotlarga mos kelmaydi.

¹ Ushbu hisobotning faqat ingliz tilidagi nusxasi rasmiy hujjat hisoblanadi. Hujjatning norasmiy tarjimalari bilan o‘zbek va rus tillarida tanishish mumkin.

Muayyan takomillashuvlarga qaramay, referendum bo'yicha qonunchilik bazasida qator kamchiliklar mavjud bo'lib, ular bu jarayon, ya'ni, referendum kampaniyalarini moliyalashtirish, ovoz beruvchilarga xolis axborot berish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining betarafligi, ommaviy axborot vositalarida mavzularni tenglik asosida yoritish va fuqarolar kuzatuvini o'z ichiga olgan bir qator jihatlar yetarli darajada tartibga solinmagan. Oxirgi tuzatishlar DIIHBning oldingi ba'zi tavsiyalariga, jumladan muqobil nizoli holatlarni hal etish imkoniyatlari va shikoyatlarni ko'rib chiqish muddatlarini bekor qilishga qaratilgan. Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish erkinliklarini, erkin fikr bildirish bo'yicha asosiy huquqlarning amalga oshirilishi qonun hujjatlari va qonunosti hujjatlari bilan haddan tashqari cheklanganligicha qolmoqda.

Markaziy saylov komissiyasi (MSK) o'z vakolatlarini samarali amalga oshirdi va o'z faoliyatida qonunda belgilangan barcha muddatlarga rioya qildi. Qonunchilik MSKni referendum jarayonining muhim jihatlarini boshqarish uchun zarur bo'lgan vakolatlar bilan yetarli darajada ta'minlamagan va MSKning vazifalari tegishli davlat institutlari tomonidan sezilarli darajada to'ldirilmoqda. Qonunda quyi bo'g'in komissiyalariga nomzodlarni ko'rsatishning ba'zi mezonlari belgilangan bo'lsa-da, ular mujmal va nomzodlarni tanlab olish jarayonida ham bunga aniqlik yetishmaydi. Referendum jarayonida *mahalla qo'mitalarining* ham vakil, ham kuzatuvchi, ham referendum kampaniyalarida faol ishtirokchi sifatidagi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ishtiroki quyi bo'g'in referendum boshqaruvi organlarining mustaqilligi va xolisligini shubha ostiga qo'ydi. DIIHB RKCHM kuzatgan o'quv treninglari, umuman olganda, ancha axborotga boy bo'ldi. Ovoz beruvchilarni xabardor qilish turli shakllarda o'tkazilib, ular shaffoflikni ta'minlashga xizmat qildi. Ayrim materiallarda ovoz berish tartib-qoidalari yaxshi tushuntirilgan bo'lsa-da, konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartishlarni ma'qullash va referendumda ishtirok etishga rag'batlantirish ovoz beruvchilarga taqdim etilgan ma'lumotlarning neytrallik shartiga putur yetkazdi. Ovoz berish jarayonlarida jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning faolligini oshirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Ovoz beruvchilarni ro'yxatga olish sust, aholining doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyi bo'yicha bo'lib, yakuniy ovoz beruvchilar ro'yxatiga 19 722 809 nafar ovoz beruvchi kiritilgan. Ovoz beruvchilarga bu ro'yxatiga kiritilgani haqidagi ma'lumotlarni ovoz berish uchastkalariga shaxsan tashrif buyurish bilan bir qatorda onlayn tarzda tekshirish imkoniyati ham berildi. DIIHB RKCHM suhbatdoshlarining aksariyati ovoz beruvchilar ro'yxatining to'g'riligi va to'liqligi bo'yicha xavotir bildirmadi. DIIHBning manipulyatsiyaga qarshi himoya choralarini ta'minlash bo'yicha uzoq yillardan beri berayotgan tavsiyasiga qaramay, qonunchilik ovoz beruvchilarni referendum kuni ovoz beruvchilarning qo'shimcha ro'yxatiga kiritish imkonini beradi, bu esa, xalqaro ilg'or tajribalarga mos kelmaydi. DIIHB RKCHM referendum kuni saylovchilarni qo'shimcha saylovchilar ro'yxatiga kiritish hollari tez-tez uchraganini qayd etib o'tdi, bu esa saylovchilar ro'yxatlarining to'g'riligini ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarni xavf ostiga qo'ydi.

Referendum haqiqiy siyosiy plyuralizm bo'lmagan muhitda bo'lib o'tdi, Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirishlar va referendumga qarshi biror uyushgan qarshi harakat kuzatilmadi. DIIHB RKCHMning ko'plab suhbatdoshlari ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish erkinliklarini, erkin fikr bildirish erkinligi bo'yicha mavjud cheklovlar bilan bog'liq xavotirlarini bildirdilar. Davlat mansabdor shaxslari va parlament partiyalarining "Ha!" kampaniyasi hukumat tomonidan o'zgartirishlarni ma'qullashni rasman targ'ib qilish bilan uyg'unlashib, partiya va davlat o'rtasida bo'lishi kerak bo'lgan tafovutni yo'qqa chiqardi. Qolaversa, bu 1990-yilgi Kopengagen hujjatining 5.4-bandiga ziddir. Davlat tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar xolis va muvozanatli emas edi, bu esa ovoz beruvchilarning ongli tanlov qilish imkoniyatini cheklab qo'ydi. Faollar turli ijtimoiy tarmoqlar orqali ijtimoiy masalalar bo'yicha turli xil ma'lumotlarni taqdim etishdi. DIIHB RKCHM referendumni targ'ib qilish jarayonida ma'muriy resurslardan keng foydalanishni va referendumni targ'ibot-tashviqot qilish tadbirlarida ishtirok etish uchun jamoatchilikka bosim o'tkazish holatlarini kuzatdi.

Mamlakatda 2016-yildan buyon xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar ijobiy olib borilmoqda va xotin-qizlarning parlamentdagi soni sezilarli darajada oshdi. Ayni paytda parlamentdagi 150 deputatning 47 nafari xotin-qizlar bo'lib, ularning 2 nafari spiker o'rinbosari lavozimida faoliyat ko'rsatadi. Ammo siyosiy hayotda, jumladan, davlat boshqaruvida xotin-qizlarning salmog'i yetarlicha emas; hukumatdagi 27 vazirdan 2 nafari ayol kishi xolos, shuningdek, mamlakatdagi barcha hokimlar erkaklardir. Umuman olganda, referendumni tashkil qilish va boshqarishda xotin-qizlar yaxshi ishtirok etgan bo'lsalar-da, ularning boshqaruv lavozimlaridagi vakilligi pastroq bo'ldi.

Qonunchilikka ko'ra, referendum o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. Referendum oldi targ'ibot ishlarini moliyalashtirish masalasida xususiy sektorning ham, davlat tomonidan moliyalashtirish tartibi ham, shuningdek, badallar yoki xarajatlarning yuqori chegarasi ham qonunchilikda keltirilmagan. Konstitutsiyaga taklif etilayotgan o'zgartirishlarni qo'llab-quvvatlash yoki ularga qarshi chiqish uchun aniq belgilangan qoidalarning mavjud emasligi, referendumdan oldingi targ'ibot-tashviqot ishlari daromadlari va xarajatlari bo'yicha hisobot berish va nazorat qilish tartib-qoidalarining yo'qligi ovoz berish jarayonining shaffofligiga putur yetkazdi.

Xalqaro majburiyatlar bilan kafolatlangan so'z erkinligi va axborotdan foydalanish huquqi qonun hujjatlari orqali cheklangan qolmoqda. Referendum arafasida DIIBning bir nechta suhbatdoshlari mamlakatda jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha qoidalarning haddan ortiq qo'llanilishi kuchaygan holatlar bo'lganligi haqida xabar qilingan. DIIB RKCHMning ba'zi suhbatdoshlari referendumdan oldingi va referendum paytidagi targ'ibot ishlari davomida Konstitutsiyaga taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni tanqidiy yoritgan nashrlarning tahririyati faoliyatiga bosimlar bo'lganligini aytib o'tishdi. Ijtimoiy masalalar bo'yicha ma'lum darajada tanqidiy xabarlar asosan internet ommaviy axborot vositalarida aytilgan bo'lsa-da, ularda yuqori davlat amaldorlari bevosita tanqid ostiga olinmagan. Shuningdek, jurnalistlar va blogerlar o'zi qo'ygan kontentni o'chirishlari uchun bosim o'tkazilganligi haqida bir necha holatlar mavjud. Qonunchilik referendumning "Ha" va "Yo'q" javob variantlarini muvozanatli yoritishni nazarda tutmaydi. DIIB RKCHMning ommaviy axborot vositalari bo'yicha qilgan monitoringi telekanallarda yangiliklar va dolzarb mavzulardagi dasturlarda referendumni tanqidiy ohangda yoritish holatlari umuman bo'lmaganligini ko'rsatdi.

DIIBning avvalgi tavsiyalariga muvofiq, so'nggi tuzatishlar referendum bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish orqali ularni hal qilishning boshqa yo'llariga chek qo'ydi. DIIB RKCHMga referendum kunigacha referendum ma'muriyati, sudlar yoki huquqni muhofaza qilish organlariga hech qanday shikoyat kelib tushmagani xabar qilindi. Markaziy saylov komissiyasi DIIB RKCHMga referendum kunigacha 308 ta xabar kelib tushgani va ularning aksariyatiga javob berilgani haqida xabar berdi. Kelib tushgan xabarlarining 77 tasi MSK vakolatiga kirmaganligi uchun, ular vakolatli davlat organlariga yuborilgan. Ushbu murojaatlarning mazmuni haqidagi ma'lumotlar ham, MSK tomonidan berilgan javoblar ham e'lon qilinmagan, bu esa, jarayondagi shaffoflikning pasayishiga sabab bo'lgan.

Referendum to'g'risidagi qonunchilikda referendumda xalqaro kuzatuvchilar hamda mahalla qo'mitalari va partiya vakillari tomonidan tavsiya etilgan kuzatuvchilar ishtirok etishi nazarda tutilgan. YXHT majburiyatlari va xalqaro standartlardan farqli o'laroq, fuqarolik jamiyati tashkilotlari kuzatuvchilikka o'z nomzodini ko'rsata olmaydilar, bu esa referendum jarayonining shaffofligini pasaytirdi. Yaqinda qonunchilikda qilingan ijobiy o'zgarishlarga qaramay, fuqarolik jamiyati birlashmalari ro'yxatdan o'tishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, boshqa shu kabi muassasalar hukumatning qat'iy nazorati ostida bo'lganligi sabab, ular davlatdan mustaqil ravishda chin ma'noda faoliyat yuritishini shubha ostiga qo'yadi.

DIIHB RKCHM referendum kunidagi jarayonlarni tizimli yoki keng qamrovli kuzatib bormadi, ular bir nechta ovoz berish uchastkalarida tashrif buyurdilar. Ovoz berish jarayoni tinch o'tdi. DIIHB RKCHMning e'tirof etishicha, Referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyasi (RUK) a'zolari ovoz beruvchilarning shaxsini tegishli tarzda aniqlash tartibiga rioya qilmay, ko'p hollarda ovoz berish tartibidagi muhim kafolatlariga bee'tibor bo'lishdi. Ko'p vaziyatlarda ovoz beruvchilar ro'yxatlarida bir xil imzolar va ko'chma (sayyor) ovoz berishdan ochiqdan-ochiq foydalanish holatlari DIIHB RKCHM tomonidan kuzatilgan. Ovoz beruvchilar ro'yxatlarida bir xil imzolar qo'yilgani, shuningdek, saylov qutularidagi byulletenlar bir to'plam bulib turishi esa, ovoz berish paytida byulletenlar to'plam holda tashlanganidan dalolat ekanligi ovozlarni sanash jarayonida aniqlandi, bunday holatlar jarayonning adolatli bo'lganini bildirdi. Ovoz berishlarga yakun yasash jarayonlari asosan tartibli kechdi, ammo ularga shaffoflik yetishmadi. Referendumda barcha ro'yxatga olingan ovoz beruvchilarning 84,5 foizi ishtirok etgan.

Ushbu hisobotda O'zbekistondagi saylovlarni YXHT majburiyatlari hamda demokratik saylovlar bo'yicha boshqa xalqaro majburiyatlar va standartlarga yaqinlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Eng asosiy tavsiyalar amaldagi qonunchilik bazasi va amaliyoti, xususan, fuqarolarning o'z siyosiy asosiy huquqlarini amalga oshirish salohiyati, saylov komissiyalarining mustaqilligi va xolisligi, saylovchilar ro'yxati, ommaviy axborot vositalari erkinligi va saylov kunigha oid tartib-qoidalariga taalluqlidir. DIIHB hokimiyat organlariga saylov jarayonini takomillashtirish va ushbu va avvalgi hisobotlarda keltirilgan tavsiyalarni ko'rib chiqishda yordam berishga tayyor.

II. KIRISH VA MINNATDORCHILIK SO'ZLARI

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (YXHT/DIIHB) O'zbekiston hukumatining rasmiy taklifiga binoan va o'z mandatiga muvofiq, 27-mart kuni 30-aprelda bo'lib o'tadigan referendumni kuzatish bo'yicha cheklangan missiyasini jo'natdi. Referendumni kuzatish bo'yicha cheklangan missiyasiga (RKCHM) elchi Albert Yonson (Albert Jónsson) rahbarlik qildi. DIIHB RKCHM tarkibida poytaxtda 10 nafar ekspert va butun mamlakat bo'ylab yo'llangan 14 nafar uzoq muddatli kuzatuvchilar o'rin olgan. DIIHB RKCHM a'zolari YXHTga a'zo 21 davlatning vakillari bo'lgan. DIIHB RKCHM referendumdan keyingi vaziyatlarni kuzatish uchun 9-maygacha mamlakatda qoldi.

DIIHB RKCHM referendum jarayonining YXHT majburiyatlari, demokratik saylovlar bo'yicha boshqa xalqaro majburiyatlar va standartlar, shuningdek, milliy qonunchilikka muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkazildi. DIIHBning LROMlar uchun standart metodologiyasiga muvofiq, missiya referendum kunidagi jarayonlarni tizimli yoki keng qamrovli kuzatib bormadi, ammo bir nechta ovoz berish uchastkalarida tashrif buyurdi. Ushbu yakuniy hisobot 2023-yil 1-may kuni Toshkentda bo'lib o'tgan matbuot anjumanida e'lon qilingan Dastlabki natijalar va xulosalar to'g'risidagi bayonotdan keyin e'lon qilinayotgan hujjatdir². DIIHB 2005-yilgi Xalqaro saylovlarni kuzatish tamoyillari deklaratsiyasini ma'qulladi³.

DIIHB RKCHM O'zbekiston Respublikasi hukumatiga saylovni kuzatish uchun taklif qilgani uchun, shuningdek, Markaziy saylov komissiyasi (MSK) va Tashqi ishlar vazirligiga ko'rsatgan yordami uchun minnatdorchilik bildiradi. U, shuningdek, boshqa davlat idoralari, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati tashkilotlari va xalqaro hamjamiyat vakillariga hamda boshqa suhbatdoshlarga hamkorlik uchun o'z tashakkurini aytib qoladi.

² Oldingi hisobotlarga qarang: [DIIHBning O'zbekistondagi saylovlarni kuzatish bo'yicha hisobotlari](#).

³ Qarang: [DIIHB 2005-yilgi Xalqaro saylovlarni kuzatish tamoyillari deklaratsiyasi](#).

III. DASTLABKI SHART-SHAROITLAR VA SIYOSIY JIHATLAR

O'zbekiston prezidentlik boshqaruvi asosidagi respublika bo'lib, parlament va prezidentga qonun chiqaruvchi vakolatlar berilgan, bundan tashqari, prezidentga ancha keng vakolatlar taqdim qilingan. Prezident bajarilishi majburiy bo'lgan farmon va qarorlar chiqaradi hamda parlamentning yuqori palatasi a'zolarining bir qismini tayinlaydi. Shu bilan birga, u hokimlar, Sudyalar oliy kengashi a'zolari, Bosh prokuror, shuningdek, Davlat xavfsizlik xizmati raisi va va boshqa yuqori martabali mansabdor shaxslarni lavozimga tayinlashda muhim rol o'ynaydi. Oliy Majlis referendumlar o'tkazishi, byudjetni qabul qilishi mumkin, 2019-yilgi Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishlarga ko'ra, Oliy Majlisning Qonunchilik Palatasi Prezident taklifiga binoan Bosh vazirni saylash uchun mas'ul hisoblanadi⁴.

O'zbekiston Ekologik partiyasi 2019-yilda ro'yxatga olingan holatdan tashqari, mamlakatda 2003-yildan buyon boshqa hech bir partiya ro'yxatdan o'tkazilmagan va siyosiy tuzilma o'zgarishsiz qolmoqda. 2019-yilgi parlament saylovlaridan buyon ro'yxatga olingan beshta siyosiy partiyaning barchasi parlamentda o'z vakillari bilan ishtirok etadi. Ularning hech biri amaldagi prezidentning yiritayotgan siyosati va ko'zlagan maqsadlariga ochiq qarshilik bildirmadi. DIIHB RKCHM suhbatdoshlarining fikricha, cheklovchi qoidalar va amaliyot tufayli siyosiy partiyalarni tashkil etish deyarli imkonsiz ekan⁵.

2021-yilda "Haqiqat va Taraqqiyot" sotsial-demokratik partiyasi hamda "Xalq manfaatlari" demokratik partiyasi kerakli miqdordagi imzolarni to'play olmagan uchun ro'yxatdan o'tkazilmadi. Shuningdek, "Ozod Vatan" va "Erk" demokratik partiyalari faollari qo'rqitish va ta'qiblar bo'lganini aytib, partiya tuzishga urinishlaridan voz kechishdi⁶. 2023-yil 16-aprel kuni amaldagi hukumat va prezidentga muxolifat bo'lgan "Haqiqat, taraqqiyot va birdamlik" demokratik partiyasi o'zining ta'sis yig'ilishi o'tkazib, o'z partiyasini ro'yxatdan o'tkazish uchun imzo yig'ishni boshladi. 16-iyun kuni Adliya vazirligi bu partiya yetarlicha imzo yig'olmagan uchun ro'yxatga olishni rad etdi⁷. DIIHB

⁴ Bular parlament tomonidan qabul qilingan. Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirishlar parlamentning har bir palatasi deputatlarining kamida uchdan ikki qismi, ya'ni ko'pchiligi ma'qullab ovoz berish yo'li bilan yoki referendum orqali kiritilishi mumkin.

⁵ 1996-yilda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida siyosiy partiyaning tuzilish uchun kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda) kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi. [DIIHB va Venetsiya komissiyasining Siyosiy partiyalarni tartibga solish bo'yicha yo'riqnomasining](#) 41-bandida shunday deyilgan: "tegishli umumiy va maxsus qonun hujjatlarida amalda boshqalar bilan erkin birlashish va boshqalar bilan siyosiy partiyalar tuzilish huquqini amalga oshirish imkonini beruvchi zarur mexanizmlarni ko'zda tutishni ta'minlash davlatning mas'uliyati hisoblanadi". O'sha hujjatning 178-bandda aytilishicha, "qonun hujjatlari ro'yxatga olish uchun haddan tashqari qiyin talablar yoki minimal qo'llab-quvvatlashni ifodalash orqali partiyalar sonini cheklashdan tiyilishi zarur. Bunday cheklovlar nafaqat siyosiy plyuralizmning erkin funksiyasini qisqartiradi, balki ularni hukumatdagilarga yoqmaydigan salbiy fikrlarni bildiruvchi partiyalar yoki nomzodlarning ovozi o'chirish uchun osonlikcha manipulyatsiya qilish mumkin". [FSHXPga 31-sonli umumiy izohning CCPR General Comment No. 31](#) 14-bandida aytilishicha, "Paktdagi huquqlarni amalga oshirish uchun choralar ko'rish talabi so'zsiz qabul qilinishi lozim va u darhol kuchga kiradi. Ushbu majburiyatga rioya qilmaslik davlat ichidagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy yoki iqtisodiy sabablarga ko'ra oqlanishi mumkin emas.

⁶ Partiyalar tuzilishga urinishlar muvaffaqiyatsiz yakunlanganidan keyin Xidirmazar Allaqulov ("Haqiqat va Taraqqiyot" sotsial-demokratik partiyasi) va Aleksey Garshin ("Ozod Vatan") ta'qib va qo'rqitish davom etayotganliklari haqida DIIHB RKCHMga xabar berishdi.

⁷ Adliya vazirligi 10 777 ta imzo olinganligi, shundan atigi 1 439 tasi haqiqiy deb topilganini ma'lum qildi. DIIHB tomonidan murakkab va o'zboshimchalik bilan qo'llanilishi mumkin deb baholangan "Siyosiy partiyalarni ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonun hujjati o'zgarishsiz qolmoqda. DIIHB va Venetsiya komissiyasining [Siyosiy partiyalarni tartibga solish bo'yicha yo'riqnomasi](#) "partiyani ro'yxatga olishni rad etish asoslari qonunda aniq ko'rsatilishi va u xolis mezonlar asosida belgilanishi" tavsiya etadi. [BMT Inson huquqlari qo'mitasining 2020-yilgi O'zbekistonning beshinchi davriy hisobotiga oid yakuniy kuzatishlari bo'yicha hisobotda](#) "amaldagi qonunchilik uyushmalar erkinligi huquqini cheklashda davom etayotgani ta'kidlanib, jumladan, quyidagilarga e'tibor qaratadi: (a) nodavlat notijorat tashkilotlari va siyosiy partiyalarni ro'yxatga olish uchun asossiz va og'ir huquqiy va ma'muriy talablar qo'yilganligi; (b) ro'yxatga olishni rad etish sabablari ro'yxati uzunligi.

RKCHM kamida bir partiya faolining siyosiy faolligi uchun jazolangani haqidagi oldingi holatdan xabardor va referendum kampaniyasi chog'ida ichki ishlar xodimlari va davlat xavfsizlik xizmatlari tomonidan bosim va qo'rqitish holatlarini qayd etgan⁸. Yaqinda qonunchilikda qilingan ijobiy o'zgarishlarga qaramay, fuqarolik jamiyati birlashmalari ro'yxatdan o'tishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, boshqa shu kabi muassasalar hukumatning qat'iy nazorati ostida bo'lganligi sabab, ular davlatdan mustaqil ravishda chin ma'noda faoliyat yuritishini shubha ostiga qo'yadi⁹.

Haqiqiy siyosiy plyuralizmni rag'batlantirish uchun siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati tashkilotlarini ro'yxatga olishning og'ir huquqiy va ma'muriy tartib-qoidalarini qayta ko'rib chiqish va xalqaro majburiyatlar va standartlarga muvofiqlashtirish kerak.

Prezident Mizriyoyev 2021-yilning noyabr oyida inauguratsiya marosimida so'zlagan nutqida konstitutsiyaviy islohot bo'yicha rejalarini e'lon qildi¹⁰. 2022-yil 20-may kuni O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDep) va O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan (O'zMTDP) nomzodligi ko'tarilgan parlament a'zolari Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish bo'yicha parlamentga taklif kiritdilar¹¹. Komissiya dastlabki loyihani e'lon qildi, fuqarolar va tashkilotlarning takliflarini to'pladi, so'ngra qayta ko'rib chiqilgan loyihani Qonunchilik palatasiga kiritdi¹². 2023-yil 10-martda Qonunchilik palatasi Konstitutsiya loyahasini bir ovozdan ma'qullab, referendum o'tkazish sanasini 30-aprel kuniga belgiladi. Bu qaror Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko'rib chiqilgandan so'ng 14-mart kuni Senat tomonidan tasdiqlanib, 15-mart kuni e'lon qilindi¹³. Hech qaysi ro'yxatga olingan partiya yoki fuqarolik jamiyati tashkilotlari Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirishlar va referendumga qarshi chiqmadi.

Konstitutsiyaviy islohotlar turli huquq va erkinliklarning sezilarli darajada mustahkamlanishi sifatida keng targ'ib qilindi. DIIHB RKCHMning ayrim suhbatdoshlar prezidentlik vakolatini besh yildan yetti yilga uzaytirish va amaldagi prezidentning vakolat muddatini nollashtirishga oid asosiy o'zgartirishlar yuzasidan ochiq bahs-munozaralar bo'lmaganidan o'z xavotirlarini bildirdilar. Dastlab taklif qilingan o'zgartirishlarda Qoraqalpog'iston Respublikasining suveren maqomini va uning ajralib chiqish huquqini o'zgartirish ko'zda tutilgan edi. Bu o'zgartirishlar e'lon qilingandan keyin taniqli mahalliy faolning namoyishga chaqiruvi va uning hibsga olinishidan so'ng Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrida keng ko'lamlil norozilik namoyishlari boshlandi¹⁴. Bu namoyishda jabrlanganlar ham bo'ldi, chunki ichki ishlar xodimlari bu namoyishni tarqatishda

⁸ Toshkent shahar sudi 2022-yil 24-fevraldagi qarori bilan "Haqiqat, taraqqiyot va birdamlik" demokratik partiyasi faoli Vazira Egamberdiyeva o'z uyida partiya faollari bilan ruxsat etilmagan yig'ilish o'tkazgani uchun 1 million 350 ming so'm (1 uevro UZS 12,591 so'mga teng) jarimaga tortildi. Faollar DIIHB RKCHMga ichki ishlar xodimlari va Davlat xavfsizlik xizmatlari tomonidan tazyiq va tahdidlar bo'layotgani haqida xabar berishgan.

⁹ 2023-yil 4-oktabrda Vazirlar Mahkamasi Fuqarolik jamiyati institutlarining xorijiy moliyalashtirish loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashishga qaratilgan qarorini qabul qildi.

¹⁰ Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yilda bo'lib o'tgan Prezident saylovida 80% ovoz bilan g'alaba qozondi.

¹¹ Konstitutsiyaviy komissiya 2022-yil 20-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma qarori bilan tuzilgan bo'lib, uning tarkibida 47 a'zo, jumladan, 10 nafar ayol kishi bor.

¹² Hukumat bergan ma'lumotlarga ko'a, Konstitutsiyaviy komissiya dastlab 60 000 ga yaqin takliflarni to'pladi; keyin u muhokama uchun dastlabki loyihani e'lon qildi. So'ngra, fuqarolardan 150 mingga yaqin takliflar yig'ildi. Bundan tashqari, kasaba uyushmalari, oliy o'quv yurtlari, mahallalar, faollar va boshqalar bilan muhokamalar natijasida ham 10 mingga yaqin takliflar kelib tushdi.

¹³ 2023-yil 13-martda Konstitutsiyaviy sud Qonunchilik palatasi Konstitutsiya loyahasini qabul qilish, referendum tayinlashda qonunda belgilangan tartibga rioya qilganligi va Konstitutsiya loyahasida referendum o'tkazilishi mumkin bo'lmagan masalalar yo'qligi to'g'risida xulosa qildi.

¹⁴ 2022-yil 1-iyulda Dauletmurat Tajimuratov hibsga olinib, keyinroq sudlandi. 2023-yil 5-iyun kuni Dauletmurat Tajimuratov hokimiyatni egallab olish yoki konstitutsiyaviy tuzumni ag'darish maqsadida til birlashtirish, o'ta katta hajmdagi va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish talon-taroj qilish yoki o'zlashtirish yo'li bilan o'g'irlik qilganlikda ayblanib, 16 yillik qamoq jazosiga hukm qilindi.

ishtirok etdi¹⁵. Ushbu namoyishlardan so'ng Prezident Mirziyoyev darhol Nukusga tashrif buyurib, Qoraqalpog'istonning maqomi bilan bog'liq o'zgartirishlarni bekor qildi. Mazkur voqealar sababli qo'zg'atilgan ayblovlar keltirilgan sud jarayonlari esa, 2023-yilda bo'lib o'tdi.

2016-yildan buyon xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijobiy jihati shundaki, parlamentd, xususan, amaldagi 150 nafardan iborat Qonunchilik palatasida xotin-qizlar soni 2014-yilgi saylovda 24 nafar bo'lgan bo'lsa, 2019-yilgi saylovda ularning soni 47 nafarga yetdi. Shuningdek, Senatdagi 100 nafar deputatdan 22 nafari xotin-qizlardir¹⁶. Senat Raisi va Parlament Quyi palata raisi o'rinbosari ham xotin-qizlardir. Shunga qaramay, siyosiy hayotda xotin-qizlarning ishtiroki nisbatan ancha kam va gender stereotiplari saqlanib qolmoqda¹⁷. Hukumatdagi 27 vazirdan 2 nafari va Sudyalar oliy kengashining 12 nafar a'zosidan 2 nafarigina ayollardir, shuningdek, mamlakatdagi barcha hokimlar erkaklardir¹⁸.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini yanada oshirish bo'yicha alohida chora-tadbirlar ko'rish mumkin. Vakillik darajasi kam bo'lgan jinsdagi nomzodlarning saylovda ishtirok etishi uchun yanada qulay shart-sharoitlarni ta'minlash uchun qo'shimcha imtiyozlar ko'rib chiqilishi mumkin. Siyosiy partiyalar gender muvozanatini yanada oshirish va ayollarni nomzodlar ro'yxatiga saylanadigan lavozimlarga joylashtirish yo'llarini ko'rib chiqishi mumkin.

¹⁵ Bosh prokuror 21 kishi halok bo'lgani va 274 kishi yaralanganini ma'lum qildi. 5-iyul kuni BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari "mustaqil va shaffof tergov" o'tkazishga [chaqirdi](#). 15 iyul kuni parlament qarori bilan Ombudsman boshchiligida Qoraqalpog'istondagi voqealarini tekshirish bo'yicha komissiya tuzildi. 2022-yil 31-yanvar kuni 22 nafar shaxsga ommaviy tartibsizliklar uyushtirish, konstitutsiyaviy tuzumni ag'darish uchun til birlashtirish va jamoat xavfsizligiga tahdid soladigan materiallarni tarqatish aybi qo'yilgan. 5 iyun kuni apellyatsiya shikoyati bo'yicha прѣйќрѓтѓќ Dauletmurat Tajimuratovning 16 yillik qamoq jazosi o'zgarishsiz qoldirildi, yana 14 nafar ayblanuvchining jazo muddati qisqartirildi yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan "ўяўвдшлтш срулдфќр" shartlariga o'zgartirildi, 8 nafari esa ozod qilindi.

¹⁶ 2023-yil noyabr oyida Saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartishlarga ko'ra, parlament saylovida siyosiy partiya tomonidan ko'rsatilishi lozim bo'lgan xotin-qizlar soni umumiy nomzodlarning 30 foizidan kamida 40 foizigacha oshirildi.

¹⁷ O'zbekistonning Oltinchi davriy hisoboti bo'yicha o'zining [Yakuniy xulosalarida](#) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish bo'yicha qo'mitasi "xalqaro shartnomalarning milliy qonunchilikdan ustunligi talabi bo'yicha qoidalarga qaramay, mazkur konvensiya sud muhokamalarida bevosita qo'llanilmagani yoki undan foydalanilmaganidan xavotirda ekanligini bildirdi".

¹⁸ BMTTDning "Gender stereotiplari va patriarxal munosabatlarning gender tengligiga salbiy ta'siri bo'yicha [tadqiqoti](#)"da ta'kidlanishicha, xotin-qizlarning parlamentdagi ishtiroki Qonunchilik palatasi va Senatdagi o'rinlarning mos ravishda 32 va 25 foizini tashkil etish orqali yaxshilangan, biroq xotin-qizlarning ijro hokimiyatida (3,4%), shuningdek, rahbarlik lavozimlarida (27%) va tadbirkorlikdagi (25%) ishtiroki sezilarli darajada pastligicha saqlanib qolmoqda.

IV. HUQUQIY BAZA

O'zbekiston demokratik saylovlar va referendumlar o'tkazish bilan bog'liq asosiy xalqaro hujjatlarning ishtirokchisi hisoblanadi¹⁹. Ommaviy yig'ilishlar²⁰, tadbirlar o'tkazish²¹ va fikr bildirish erkinliklari²² bo'yicha asosiy cheklovlar qonunchilik hamda qonunosti hujjatlarida va amaliyotda saqlanib qolmoqda²³. Qonun hujjatlarining tanlab qo'llanilishi, qonunosti hujjatlarining ko'pligi, masalan, bir-biriga yoki qonun hujjatlariga zid bo'lgan farmon va qarorlar hamda bunday qonunosti hujjatlaridan foydalanish qiyinligi huquqiy ishonchga putur etkazadi. Hozirda faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati tashkilotlarining aksariyati hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan subyektlardir va chet eldan moliyalashtirilgan loyihani amalga oshirish uchun davlat ma'muriy organlarining yordamini talab qiluvchi yaqinda qabul qilingan qonun hujjatlari DIIHB RKCHMning bir nechta suhbatdoshlari tomonidan fuqarolik jamiyati tashkilotlari shu jumladan, ularning demokratik va saylov jarayonlaridagi ishtiroki uchun qo'shimcha to'siqlar tug'dirishi mumkin, deb hisoblangan²⁴. Bundan tashqari, ro'yxatdan o'tmagan fuqarolar birlashmalari faoliyati qonun bilan taqiqlanadi va ularga tegishli jazo qo'llaniladi. Xalqaro standartlar ushbu huquqlarga nisbatan har qanday cheklovlar zarur va qonuniy maqsadlarga mutanosib bo'lishi kerakligini

¹⁹ Jumladan, [1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt\(FSHXP\)](#), [1979-yilgi Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida Konventsiya \(XKBBK\)](#), [2003-yilgi Korruptsiyaga qarshi konventsiya](#) va 2021-yil iyun oyida O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan [2006-yilgi Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya \(NHTK\)](#).

²⁰ Saylovoldi kampaniyasi bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilishlar ruxsat talab qilinishi bilan cheklanib qoladi. [Vazirlar Mahkamasining 29.07.2014 yildagi 205-son qarori bilan](#) fuqarolar yig'inlarini o'tkazish uchun oldindan ruxsat olish talab etiladi; takror sodir etilgan huquqbuzarliklar jinoiy javobgarlik va uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. DIIHB va Venetsiya komissiyasining 2020-yilgi Tinch yig'ilishlar o'tkazish erkinligi bo'yicha [yo'riqnomasining](#) 36-bandida shunday deyiladi: "Yig'ilish haqida oldindan ogohlantirmaslik yoki yig'ilish uchun belgilangan yo'nalish, vaqt va joy cheklovlariga rioya qilmaslik kabi jinoyatlar qamoq jazosi yoki katta jarimalar bilan jazolanmasligi zarur".

²¹ [1999-yilda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun](#) ularning faoliyati va moliyalashtirilishini tartibga soluvchi ko'plab farmon va qarorlar bilan to'ldirildi. [Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-oktabrdagi 858-son qarori](#) hamda [Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-iyundagi 328-son qarori](#) kabilarni bunga misol qilish mumkin. [1996-yilda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunning](#) 6-moddasida siyosiy partiyani tuzish uchun kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda) kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi, buni esa, ayniqsa, mahally manfaatlar bo'yicha uyushmalar uchun cheklovchi talab deb hisoblash mumkin. DIIHB RKCHMning ba'zi suhbatdoshlari ta'kidlashicha, cheklovchi qoidalar mavjud tashkilotlarning aksariyatining davlat tashkilotiga aylanib ketishiga sabab bo'ldi.

²² Jinoyat kodeksining terrorizm, diniy ekstremizm, ommaviy ravishda haqorat qilish yoki prezidentga tuhmat qilish kabi jinoyatlar to'g'risidagi qoidalari noaniq tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, siyosiy muxolifatga qarshi suiiste'mol qilinishi mumkin. Prezidentni tuhmat qilish va omma oldida haqorat qilish uchun jinoiy javobgarlik 2021-yilda Internet ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarga kengaytirildi, chunki "ommaviy tartibsizliklar" uchun onlayn ommaviy chaqiriqlar, onlayn nutqqa cheklovlar ancha keskinlashtirildi. Shuningdek, "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning qayta ko'rib chiqilgan tahririda ham odamlarni qonunni buzishga undovchi, jamoat tartibiga tahdid soluvchi yoki davlatga "hurmatsezlik" ko'rsatuvchi bayonotlarni internet orqali e'lon qilish harakati katta miqdorda jarima solinishga sabab bo'ladi.

²³ Asosiy erkinliklarga huquqiy cheklovlarni baholash uchun qarang: [BMT Inson huquqlari qo'mitasining 2020-yilgi O'zbekistonning beshinchi davriy hisobotiga oid yakuniy kuzatishlari bo'yicha hisobotda](#), xususan, 20, 44, 46, 48 va 50-bandlar. [BMT Inson huquqlari qo'mitasining FSHXPga bergan 25-umumiy izohining](#) 25-bandida shunday deyiladi: "[...] 25-modda bilan himoyalalanuvchi huquqlardan to'liq foydalanish Paktning 19, 21 va 22-moddalarida kafolatlangan huquqlardan, shu jumladan yakka tartibda yoki siyosiy partiyalar va boshqa tashkilotlar orqali siyosiy faoliyat bilan shug'ullanish erkinligi, jamoat ishlarini muhokama qilish erkinligi, tinch namoyishlar va yig'ilishlar o'tkazish, tanqid qilish va qarshi nutq so'zlash, siyosiy materiallarni nashr etish, saylovoldi kampaniyasini o'tkazish va siyosiy g'oyalarni reklama qilish erkinligi kabilardan foydalanishni talab qiladi.

²⁴ Vazirlar Mahkamasining 328-son qarori bilan xorijdan moliyalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish jarayoni tartibga solingan..

belgilaydi²⁵. Shuningdek, qonunchilikdagi noaniqliklar, kamchiliklar va mujmal tartib-qoidalar cheklovchi tartib-qoida sifatida talqin qilinishi va ularni o'zboshimchalik bilan amaliyotga qo'llash uchun o'rin qoldiradi²⁶.

Uyushmalar, yig'ilishlar va so'z erkinligini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi qayta ko'rib chiqilishi, unda ularni amalga oshirishdagi har qanday cheklovlar zarurligi, mutanosib va xalqaro standartlarga muvofiq qo'llanilishini ta'minlash lozim.

Referendumlar, asosan, 1992-yil qabul qilingan Konstitutsiya va 1991-yildagi Referendum to'g'risidagi qonun, 2019-yilda qabul qilingan Saylov kodeksi, Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, shuningdek, Markaziy saylov komissiyasi (MSK) tomonidan chiqarilgan farmon va qarorlar hamda bajarilishi majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Referendum to'g'risidagi qonunga oxirgi marta 2019 va 2022-yillarda o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, o'zgartirishlar asosan 2019-yilgi Saylov kodeksi va unga 2021-yilda kiritilgan qo'shimchalarni o'z ichiga oladi. DIHHBning saylovga oid avvalgi tavsiyalariga muvofiq, yaqinda kiritilgan tuzatishlar referendum paytidagi nizolarni hal qilish uchun muqobil imkoniyatlarni bekor qildi hamda shikoyatlarni topshirish va ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirdi. Referendum o'tkazuvchi okrug komissiyalari (ROK) tomonidan natijalar bayonnomalarini e'lon qilish, ROK a'zolarining minimal sonini 9 tadan 11 tagacha oshirish, ovoz beruvchilar ro'yxatiga kiritilgan o'zgartirishlarni referendumga 5 kun qolungacha qisqartirish, chet elda ovoz berish tartiblarini o'zgartirish kabi bir nechta texnik tuzatishlar joriy qilindi.

Garchi "Referendum to'g'risida"gi qonun referendum jarayonining asosiy qoidalarini belgilab bersada, bir qancha muhim jihatlar, jumladan, referendum kampaniyasi va uni moliyalashtirish, ovoz beruvchilarni xolis xabardor qilish, davlat organlarining betarafligi, ommaviy axborot vositalarida voqealarni tenglik asosida yoritish va fuqarolar kuzatuv bo'yicha ma'lumot berilmagan. Ba'zi takomillashtiruvlar kiritilganiga qaramay, referendum o'tkazish bo'yicha qonunchilik bazasida qator kamchiliklar mavjud va shu sababli referendum o'tkazish jarayonini tartibga solish xalqaro standartlarga mos kelmaydi.

Saylovoldi kampaniyasi va uni moliyalashtirish, ommaviy axborot vositalarida xolis va muvozanatli yoritish kabi jarayonlarning muhim jihatlarini tartibga solish uchun referendum o'tkazishning huquqiy bazasi qayta ko'rib chiqilishi zarur.

DIHHB RKCHM suhbatlashgan kishilar konstitutsiyaviy islohot jarayoni doirasidagi maslahatlashuvlar yetarli darajada uzoq davom etganini va yakuniy loyihada ko'plab takliflar inobatga olingan holda, kiritilganligini ijobiy baholadilar²⁷. Biroq jarayonda prezidentlik muddatini uzaytirish kabi ba'zi munozarali masalalar yuzasidan ochiq munozaralar bo'lmadi. DIHHB RKCHMning ba'zi suhbatdoshlari ovoz beruvchilarga ko'zda tutilgan o'zgartirishlarning ehtimoliy

²⁵ Qarang: [FSHXPning](#) 21 va 22.2-moddolari. Shuningdek, [BMT Inson huquqlari qo'mitasining \(HRC\) 1996 yilda FSHXPga bergan 25-umumiy izohining](#) 4 va 27-bandlariga qarang. [YXHT Kopengagen hujjatining](#) (1990-yil) 24-bandi "qonun bilan belgilangan [...] va ushbu qonunning maqsadiga to'liq muvofiq bo'lgan ayrim shaxslardan tashqari" hollarda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini cheklashni taqiqlaydi". See Section II.2. of the [Venetsiya komissiyasining qayta ko'rib chiqilgan Referendumlarni o'tkazish bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksining \("Referendumlarni o'tkazish bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksi"\)](#) II.2-bo'limida shunday deyiladi: "Inson huquqlari, xususan, so'z va matbuot erkinligi, mamlakat ichida erkin harakatlanish huquqi, siyosiy maqsadlar uchun ommaviy tadbirlarni tashkil etish erkinligi, shu jumladan siyosiy partiyalarni tuzish erkinligi hurmat qilinmasdan demokratik referendumlar amalga oshirilmaydi".

²⁶ Qonunchilik saylovoldi kampaniyasini moliyalashtirishni tartibga solmaydi va saylovchilar haqidagi ma'lumotni taklif etilayotgan o'zgartirishlar uchun kampaniyadan aniq ajratmaydi yoki ularga nisbatan jazo choralarini nazarda tutmaydi. Qonunda ommaviy axborot vositalarining axborotni xolis va muvozanatli yoritish bo'yicha batafsil qoidalar yo'q.

²⁷ Suhbatdoshlarning aytishicha, 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan va ko'rib chiqilgan.

ta'siri haqida xolis yoki muvozanatli ma'lumot berilmagan, bu esa ularning ongli tanlov qilish imkoniyatlari cheklab qo'yilganligini bildirdilar.

Referendumda taklif etilayotgan barcha tuzatishlar to'g'risida xolis va muvozanatli ma'lumotlar saylovchilarga ularning ovoz berish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birga taqdim etilishi zarur.

Konstitutsiya loyihasi 6 ta bo'lim, 155 ta modda va 434 ta banddan iborat²⁸. DIIHB LROMning ayrim suhbatdoshlari taklif etilayotgan tuzatishlarni takomillashtirish sifatida olqishladilar va Konstitutsiya loyihasining qoidalari dunyoviy va ijtimoiy davlatni barpo etishi, inson huquqlari va gender tenglikning ayrim jihatlarini mustahkamlashi, davlatning fuqarolar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini oshirish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatida halol raqobatni, yerga egalik qilish huquqlarini rag'batlantirishini ta'kidladilar. DIIHB RKCHMning ba'zi suhbatdoshlari Konstitutsiya loyihasi insonning asosiy huquq va erkinliklari haqidagi qoidalarni kuchaytirmasligi, balki qonunchilikda mavjud bo'lgan qoidalarni batafsil bayon qilishini ta'kidlab o'tishgan. Ko'zda tutilayotgan o'zgartirishlar prezidentlik vakolatini besh yildan yetti yilga uzaytirish va amaldagi prezidentning vakolat muddatini nollashtirishga oid bandlarni ham o'z ichiga oladi²⁹. Boshqa yuqori lavozimlar uchun shartlar bo'yicha cheklovlar joriy etildi, bunda u lavozimdagi shaxslarning oldingi va joriy rahbarlik muddatlari hisobga olinmaydi³⁰. Konstitutsiya loyihasining ayrim bandlari, xususan, suddagi muayyan lavozimlar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mansabdor shaxslari tayinlanishini saqlab qolish kabi boshqa qoidalari DIIHB LROMning ayrim suhbatdoshlari tomonidan uncha xush ko'rilmadi, chunki ularda jamoatchilik takliflari hisobga olinmagan.

V. REFERENDUM TIZIMI

Konstitutsiyaga o'zgartirishlar parlament tartibida yoki umumxalq referendumini orqali kiritilishi mumkin. Referendum fuqarolar, Oliy Majlis palatalari yoki Prezidentning taklifiga binoan Oliy Majlis tomonidan chaqirilishi mumkin. Konstitutsiyaviy referendum natijalari majburiydir. Referendum o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish va uning sanasini belgilash Oliy Majlisning vakolatiga kiradi. Taklif qabul qilinishi uchun ro'yxatga olingan ovoz beruvchilarning kamida 50 foizi ushbu referendumda ishtirok etishi va ovoz berishda ishtirok etganlar orasida taklifni ko'pchilik ovozi ma'qullaydi³¹.

Konstitutsiyaning qariyb uchdan ikki qismiga taalluqli taklif etilayotgan bu o'zgartirishlar yagona paket sifatida ovozga qo'yildi, bu esa ovoz beruvchilarga o'zgartirishlarda ko'rsatilgan har bir alohida

²⁸ 1992-yilgi Konstitutsiya 128 ta modda va 275 ta banddan iborat bo'lgan.

²⁹ Ilg'or xalqaro amaliyotlarga ko'ra, hukumatdagi yuqori lavozimlarga taalluqli tuzatishlar amaldagi hukumat vakillarining faoliyatini davom ettirishni ta'minlaydigan tarzda kiritilmasligi lozim. Qarang: [Venetsiya komissiyasining konstitutsiyaviy tuzatishlar to'g'risidagi hisoboti, CDL-AD\(2010\)001,145-band](#). Yana qarang: [Venetsiya komissiyasining 2018 yildagi Vakolatlar muddati cheklovlari to'g'risidagi hisoboti](#) 110-bandi: "Davlatning yuqori lavozimlari vakolatini mustahkamlovchi yoki uzaytiruvchi konstitutsiyaviy tuzatishlar taklif qilinganda, ularda amaldagi prezidentning shaxsiy vakolatlari va manfaatlarini emas, balki hukumat mexanizmini takomillashtirilishi asosiy sabab sifatida ko'rsatilishi zarur". Taklif qilinayotgan Konstitutsiya loyihasining yettinchi muddasida, prezidentning amaldagi besh yillik vakolatini ikki yilga uzaytirish, amaldagi prezident esa yana ikki muddatga saylanish huquqiga ega bo'lishi ko'rsatilgan. DIIHB RKCHMning davlat hokimiyati organlarida ishlovchi suhbatdoshlari bu mavzu bo'yicha muhokama qilishni uncha ma'qullamadilar.

³⁰ Xususan, Qonunchilik palatasi Spikeri, Senat Raisi, Oliy sud raisi, Bosh prokuror, MSK raisi, mahalliy hokimlar.

³¹ "[Referendumlarni o'tkazish bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksi](#)" III.7(b) bandiga qarang: "Asosiy konstitutsiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar bo'yicha referendum uchun quorum bo'lishi yoki ko'pchilikning talabi qabul qilinadi"..

masala bo'yicha tanlov qilish imkoniyatini bermaydi va xalqaro ilg'or amaliyotga mos kelmaydi³². Ovoz beruvchilardan "Ha" yoki "Yo'q" javob variantlaridan biriga ovoz berish so'ralgan³³.

Saylovchining xohish-irodasini ifoda etishni yanada osonlashtirish uchun Konstitutsiyani bir nechta alohida jihatlar bo'yicha qayta ko'rib chiqishda taklif etilayotgan o'zgartirishlar alohida javob berish uchun alohida savollar sifatida taqdim etilishi mumkin edi.

VI. REFERENDUMNI BOSHQARISH

Mazkur referendum markaziy saylov komissiyasi, referendum o'tkazuvchi 14 ta okrug komissiyasi (ROK) va referendum o'tkazuvchi 10758 ta uchastka komissiyasi (RUK), shu jumladan 39 ta mamlakatda tashkil etilgan 55 ta RUK tomonidan boshqarildi. Markaziy saylov komissiyasi doimiy organ hisoblanib, ROK va RUK bu referendumni o'tkazish uchun vaqtincha tuzilgan.

Markaziy saylov komissiyasi (MSK) a'zolari hududiy vakillik organlarining tavsiyasi bo'yicha oliy Majlis tomonidan noma'lum muddatga saylanadi³⁴. Hozirgi MSKning 21 a'zosi bo'lib, ularning yetti nafari ayol kishidir. Markaziy saylov komissiyasi ommaviy axborot vositalari va xalqaro kuzatuvchilar ishtirokida, shu jumladan, shaffoflikni ta'minlash maqsadida onlayn rejimda muntazam majlislar o'tkazdi. Sessiyalar va kun tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar oldindan onlayn ravishda taqdim qilinib, unda qabul qilingan qarorlar sessiyalardan ko'p o'tmay Markaziy saylov komissiyasi veb-saytida e'lon qilindi. Markaziy saylov komissiyasi veb-saytida referendumga oid turli xil materiallar mavjud bo'lib, ular ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun ham qulaylashtirilgan formatda taqdim etilgan.

Umuman olganda, MSK texnik tayyorgarlikni samarali tashkil qilib, qonunchilikda belgilangan muddatlarda turli qarorlar qabul qildi³⁵. Biroq MSKning ayrim ko'rsatmalari, xususan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning saylov uchastkalarida ishtirok etishini ta'minlash choralari hamda saylov uchastkalarida videokameralardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar RUK trening sessiyalari yakunlanganidan so'nggina qabul qilindi. MSKning majburiyatlarini amalga oshirish saylov boshqaruvining mustaqilligi tamoyilidan chetga chiqqan holda davlatning boshqa muassasalari tomonidan sezilarli darajada to'ldirilmoqda³⁶. Bundan tashqari, MSK referendumni tashkil etish va o'tkazish vakolatiga ega, biroq qonunchilikda Markaziy saylov komissiyasiga referendum jarayonining muhim jihatlarini boshqarish, shu jumladan referendum kampaniyasi

³² [Referendumlarni o'tkazish bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksida](#) "Agar biror ichki umumiylik bo'lmasa, ovoz beruvchilarni bir vaqtning o'zida bir nechta masalalar bo'yicha bir xil ovoz berishga chaqirilmalik zarur, chunki ularning o'sha masalalardagi fikrlari turlicha bo'lishi mumkin. Agar matnni qayta ko'rib chiqish bir nechta alohida jihatlarni qamrab oladigan bo'lsa, ovoz beruvchilarga bir qator savollar berilishi kerak". Biroq matnni, xususan, Konstitutsiyani to'liq qayta ko'rib chiqish, tabiiyki, faqat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan jihatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin emas. Demak, bu holda loyiha mazmuning birligi talabi qo'llanilmaydi. Bir necha boblarni o'z ichiga olgan matnni jiddiy qayta ko'rib chiqish to'liq qayta ko'rib chiqishga teng deb hisoblanishi mumkin; tabiiyki, bu turli bo'limlarni umumxalq ovozigacha alohida qo'yish mumkin emas degani emas.

³³ Referendumda ovoz berish byulletenida shunday savol so'ralgan: "Siz "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunini qabul qilasizmi?"

³⁴ MSK Raisi komissiya a'zolari orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasi bo'yicha komissiya majlisida saylanadi.

³⁵ MSK kuzatuvchilarni akkreditatsiya qilish, quyi bo'g'in referendum komissiyalarini tuzish tartibi to'g'risidagi bir qator qarorlar qabul qildi, saylov byulletenining shaklini tasdiqladi, muddatidan oldin ovoz berish sanasini belgiladi, referendum bo'yicha o'quv mashg'ulotlari metodologiyasini tasdiqladi.

³⁶ [Saylov masalalarida adolatli amaliyot kodeksining](#) 69 va 70-bandlarida shunday deyiladi: "Ma'muriy hokimiyat uzoq yil davomida siyosiy hokimiyatdan mustaqil bo'lgan mamlakatlarda davlat xizmati siyosiy bosimlarga duchor bo'lmagan holda saylov qonunchiligini qo'llaydi [...] Biroq plyuralistik saylovlarni tashkil etish tajribasi kam bo'lgan davlatlarda hukumat ma'muriy hokimiyatni o'zi xohlagan narsani qilishga majburlash xavfi juda yuqori".

faoliyatini nazorat qilish, referendum kampaniyasini ommaviy axborot vositalarida yoritish qoidalarini ishlab chiqish va kampaniyani moliyalashtirish borasida zarur bo'lgan vakolatlar yetarli darajada berilmagani sababli, shu sohalarini u tegishli tartibda boshqaruv mas'uliyatiga ega emas³⁷.

MSK 23-mart kuni Xalq deputatlari hududiy Kengashlari tavsiyalariga ko'ra referendum o'tkazuvchi okrug komissiyalarini (ROK) tuzdi. Qonuniy muddat hisoblangan 9-aprelgacha esa, ularning tarkibida referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyalari tashkil etildi. Mamlakat qonunchiligi va MSKga oid qonun hujjatlarida RUK a'zolariga nomzodlarni qo'yish bo'yicha ba'zi mezonlar mavjud bo'lib, bular Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining (YXHT DIIHB) avvalgi tavsiyalariga qisman mos keladi. Shunga qaramay, bu mezonlarning aksariyati mujmalligicha qolmoqda³⁸. RUK a'zolariga ariza berish jarayoni ham yetarlicha tartibga solinmagan va shaffof emas³⁹. Qonunga zid bo'lmasa-da, referendum jarayoniga mahallalarning jalb etilishi quyi bo'g'in saylov komissiyalarining mustaqil faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. YXHT DIIHB kuzatuvchilari ko'plab RUKlarda mahallalar tomonidan tavsiya qilingan komissiya a'zolari referendum o'tkazishda o'zlarining bevosita xizmat vazifalari bilan bir qatorda konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirishlarni targ'ib qilishda ham juda faol ishtirok etganliklarini ma'lum qildilar⁴⁰. Bundan tashqari, xalqaro ilg'or amaliyotda referendumda taklif etilayotgan o'zgartirishlar tarafdorlari va ularga qarshi tomonlarning muvozanatli vakillik qilish imkoniyati nazarda tutilsa-da, mamlakat qonunchiligida ushbu imkoniyat ko'zda tutilmaydi⁴¹.

Referendum o'tkazish bo'yicha barcha darajadagi komissiya a'zolarini ko'rsatish va tayinlash masalalari ijro hokimiyati, mahalliy hokimliklar va mahallalardan mustaqil ravishda referendum o'tkazish organlarini shakllantirishni nazarda tutgan holda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

DIIHB RKCHM tomonidan kuzatilgan referendum komissiyalari uchun o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlari yaxshi tashkil etilgan va mazmunli bo'lgan deb baholandi⁴². Ammo DIIHB RKCHM kuzatuvchilari o'quv treninglari davomida referendum jarayonining muhim jihatlari haqida axborot berishda nomuvofiqliklar borligini ma'lum qilishdi, bu esa trening ishtirokchilarining referendum tartib-qoidalarini turlicha tushunishlariga sabab bo'ldi. Xususan, referendum kuni ovoz

³⁷ Qarang: [Venetsiya komissiyasining Referendumlarni o'tkazish bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksining](#) II bo'limi 4.1-bandiga muvofiq "Markaziy saylov komissiyasi yoki boshqa mustaqil organ referendum kampaniyasi o'tkazilishini nazorat qilish, uning tegishli tarzda o'tkazilishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rish uchun yetarlicha vakolatlariga ega bo'lishi zarur".

³⁸ Masalan, "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi qonunga muvofiq, "aholi o'rtasida obro'e'tibor qozongan fuqarolar referendum o'tkazuvchi okrug va uchastka komissiyasining a'zolari bo'lishi mumkin". Yana boshqa bir mezonda bu komissiyalarga jamoatchilik vakillarining kiritilishi tavsiyaviy xarakterga ega.

³⁹ 2022 yilda qonunchilikga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, RUK a'zolari mahallalar, jamoat birlashmalari va boshqa muassasalar tomonidan tavsiya etilishini nazarda tutadi. DIIHB Referendumni kuzatish bo'yicha cheklangan missiyasi (RKCHM) uchrashgan ba'zi RUK a'zolari o'z lavozimlariga qanday ariza berganliklarini tushuntirib bera olmadilar, ba'zilar esa, ularga mahalliy hokimlik vakillari murojaat qilganliklarini ta'kidladilar. Ko'plab komissiya a'zolari komissiyaga saylanish talablaridan xabardor emasligini ma'lum qildilar.

⁴⁰ *Mahalla – muayyan hududda istiqomat qiluvchi aholining an'anaviy ijtimoiy tuzilmasi.* Hozirgi vaqtda u hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va moliyalashtiriladi. Shuningdek, u soliqlarni undirish, jamoat tartibini saqlash, referendum bo'yicha saylov komissiyalari a'zolari va kuzatuvchilari nomzodini ko'rsatish kabi keng funksiyalarga ega ma'muriy birlik bo'lib xizmat qiladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, hozirda mamlakatda 9445 ta mahalla mavjud. Qarang: [Referendumlarni o'tkazish bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksi](#) II bo'limi, 4.1.a-bandi: "...milliy darajadan ovoz berish uchastkasi darajasiga qadar barcha darajalarda mustaqil komissiyalar tuzilishi zarur".

⁴¹ Qarang: Ushbu, [Referendumlarni o'tkazish bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksi](#) Izohli eslatmasining II bo'limi, 3.1-bandida keltirilishicha "Referendumlarni har doim ham partiyalar bo'yicha bo'linishga sabab bo'lavermasa-da, ular boshqa siyosiy tomonlar ishtirok etishi mumkinligi, ya'ni, saylov komissiyalari tarkibiga nisbatan partiyalarning muvozanatli vakilligi va taklif tarafdorlari va muxoliflarining mutanosib vakilligi o'rtasida tanlov taklif qilinishi kerakligini anglatadi."

⁴² ROKni tashkil etilgandan so'ng MSK tomonidan ishlab chiqilgan yangi metodologiyaga muvofiq alohida o'quv treninglari tashkil etildi. Mazkur o'quv treninglarining aksariyati DIIHB RKCHM kelishidan oldin o'tkazilgan.

beruvchilarning qo'shimcha ro'yxatiga va vaqtincha yashash joyi bo'yicha ovoz beruvchilar ro'yxatiga qo'shimchalar kiritilganligi yuzasidan bir-biriga zid izohlar berildi. Keng qamrovli tayyorgarlikning yo'qligi saylov kuni muhim tartib-qoidalarning noto'g'ri qo'llanilishiga olib kelgan bo'lishi mumkin (*"Saylov kuni" bo'limiga qarang*).

Ovoz beruvchilarni referendum haqida xabardor qilish kampaniyasi doirasida referendum tashkilotchilari hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar, jumladan vazirliklar, mahalliy hokimliklar, mahallalar va fuqarolik jamiyaati institutlari (FJI) turli bosma va audio-vizual materiallariga buyurtma berildi va ular tayyorlanib, ovoz beruvchilarga tarqatildi. Ayrim materiallarda ovoz berish tartib-qoidalari yaxshi tushuntirilgan bo'lsa-da, konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartishlarni ma'qullash va referendumda ishtirok etishga rag'batlantirish ovoz beruvchilarga taqdim etilgan ma'lumotlarning neytrallik shartiga putur yetkazdi. Ovoz berish yashirinligi va tanlash erkinligi haqidagi ma'lumotlar MSK veb-saytida va uning ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida mavjud bo'lib, Toshkentdagi ayrim tadbirlarda ham taqdim etildi. DIIHB RKCHM kuzatuvchilari hududlarda bunday ma'lumotlar yo'qligi haqida xabar berishdi.

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tayyorlangan saylovchilarga oid axborot materiallari referendum o'tkazish bo'yicha ma'muriyatning betarafligini ta'minlashi zarur. Saylov huquqini amalga oshirishning muhim jihatlari aniq ko'rsatilishi lozim.

Umuman olganda, referendumni tashkil qilishda xotin-qizlarning ishtiroki ancha yaxshi yuqori salmoqqa ega bo'lgan bo'lsa-da, rahbarlik lavozimlarida ularning ishtirok darajasi pastroq bo'ldi. MSK ma'lumotlariga ko'ra, ROK barcha a'zolarining 42 foizi va RUK a'zolarining 49,7 foizi xotin-qizlarni tashkil qildi. Respublika bo'yicha, RUKning qariyb 38 foiziga xotin-qizlar rahbarlik qilgan bo'lsalar-da, 14 ta ROKning faqat 2 tasiga ayollar rahbarlik qilgan. ROK va RUKning kotiblar lavozimlari jins bo'yicha deyarli teng taqsimlangan. ROK a'zolarining atigi 6 foizi va RUK a'zolarining 15 foizi 30 yoshdan kichik shaxslar bo'ldi xolos.

Xalqaro standartlarga muvofiq, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning referendum jarayonlarida ishtirokini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Bunga ovoz berish uchastkalaridan foydalanishni ta'minlash uchun jihozlar, jumladan, Brayl alifbosidagi materiallar, nogironlar aravachasida kelgan ovoz beruvchilar uchun maxsus kengroq jihozlangan ovoz berish kabinalari, imo-ishora tili va katta shriftli materiallarga ehtiyoji bor ovoz beruvchilar uchun axborot materiallari kiradi. Referendum to'g'risidagi qonun hujjatlarida nogironligi bo'lgan shaxslarni referendum o'tkazish bo'yicha ma'muriyat tarkibiga kiritish tavsiya etiladi.

VII. SAYLOVCHILARNI RO'YXATGA OLISH

18 va undan katta yoshdagi fuqarolar ovoz berish huquqiga ega. O'zgartirilgan Konstitutsiyada og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan va muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar sudning maxsus qarori bilan saylov huquqidan mahrum etilishi belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlardan keyin fuqarolarning ushbu guruhlari avtomatik ravishda saylash huquqiga ega bo'ldilar⁴³. Biroq MSK Jinoyat kodeksiga jinoiy jazo sifatida ovoz berish huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi moddani kiritish maqsadida o'zgartirishlar kiritilishini ma'lum qildi.

⁴³ MSK ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda 10 702 nafar huquqdan mahrum qilingan mahkumlar va 6 608 nafar aqliy va ruhiy nogironligi bor shaxslar bor.

O'zbekistonda doimiy yoki vaqtincha yashash uchun saylovchilar yoki ovoz beruvchilarni ro'yxatga olishning passiv tizimi qo'llaniladi⁴⁴. Saylovchilarning yagona elektron ro'yxati (SYER) bir nechta davlat idoralari va vazirliklarning turli ma'lumotlar bazalarini umumlashtirgan holda tashkil qilingan⁴⁵. SYERda ovoz beruvchilarning dastlabki ro'yxatlari har bir ovoz berish uchastkasi bo'yicha tuzib chiqiladi⁴⁶. RUK ovoz beruvchilar ro'yxatini tekshirishga mas'ul bo'lib, ular mahalliy davlat hokimiyati organlari va mahallalardan ma'lumotlarni yig'ish bilan shug'ullanishadi hamda ovoz beruvchilarning haqiqiy manzillarini uyma-uy yurib, tekshiradilar. DIIHB RKCHMning e'tirof etishicha, bunday tekshiruvlarda ba'zan ovoz beruvchilar bilan bog'lanish uchun turli shaxsiy savol-javoblar tashkil qilinganligi ham kuzatilgan⁴⁷.

Ovoz beruvchilarga referendum kundan 10 kun oldindan boshlab ovoz beruvchilar ro'yxatidagi ma'lumotlarni onlayn, shuningdek, ovoz berish uchastkalariga shaxsan borib tekshirish imkoniyati berildi. Bundan tashqari, ovoz beruvchilar referendum kuni o'zlarining ro'yxatini doimiy yashash joyidan vaqtincha yashash joyiga o'zgartirishlari mumkin bo'ldi⁴⁸. Qonun bo'yicha, referendum kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan ovoz beruvchi o'z arizasiga ko'ra muddatidan oldin ovoz berish huquqiga ega. Qonunda bunday ariza uchun asoslar ro'yxati keltirilmagan va RUK a'zolari ovoz beruvchilardan qo'shimcha asoslar so'rashni taqiqlaydi.

SYERga kiritilgan fuqarolar soni 22 028 002 nafardan iborat bo'lib, MSK e'lon qilgan ovoz beruvchilarning yakuniy soni 19 722 809 kishini tashkil etdi. MSK bu raqamlar orasidagi farqni uch oydan ko'proq vaqt oldin mamlakatni tark etgan fuqarolar saylovchilar ro'yxatidan chiqarilgani bilan izohladi. DIIHBning uzoq yillardan beri berayotgan tavsiyasiga qaramay, ovoz beruvchilar SYERga kiritilgan bo'lsa va muayyan ovoz berish uchastkasi yaqinida istiqomat qilsalar, ular referendum kuni qo'shimcha ovoz beruvchilar ro'yxatiga kiritish mumkinligi qonunchilikda ko'zda tutilgan⁴⁹. Bundan tashqari, referendum kundan oldin DIIHB RKCHM suhbatlashgan RUK vakillari tekshirish tartib-qoidalari tafsilotlaridan bexabar edilar. Referendum kuni esa, hech qanday kafolatlarsiz va xalqaro ilg'or amaliyotga zid ravishda ko'plab saylovchilar qo'shimcha saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan⁵⁰. DIIHB RKCHM suhbatlashgan fuqarolarning aksariyati referendum kunigacha ovoz beruvchilar ro'yxatining to'g'riligi va to'liqligi haqida hech qanday xavotir bildirishmagan bo'lsa-da, referendum kuni ovoz beruvchilarning ovoz beruvchilar maxsus ro'yxatiga keng miqyosda kiritilishi bunday ro'yxatlardagi noaniqliklar va ovoz berish kunini ro'yxatga olishdan noto'g'ri foydalanilganligini ko'rsatdi.

⁴⁴ Xorijda ovoz berish uchun ro'yxatga olish jarayonlari ancha faol kechmoqda. Ushbu referendumda 307 895 nafar fuqaro xorijda ovoz berish uchun ro'yxatdan o'tgan.

⁴⁵ Bir qator davlat organlari, jumladan Adliya vazirligining Davlat personalizatsiya markazi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi.

⁴⁶ RUK tashkil etilganidan keyin uch kun o'tgach, o'z saylov uchastkalaridagi ovoz beruvchilar ro'yxatini ko'rish huquqiga ega bo'ldilar. Jazoni ijro etish muassasalari, harbiy qismlar, kasalxonalar va boshqa sog'liqni saqlash muassasalarida vaqtincha yashab turgan, ovoz berish huquqiga ega fuqarolarning ro'yxatlari ushbu muassasalarning rahbarlari tomonidan tuziladi.

⁴⁷ DIIHB RKCHM Navoiy shahrida pasport ma'lumotlari to'planganligi holatlarini, Toshkent shahridagi ovoz beruvchilarning referendum uchun tekshiruv doirasida oilaviy holati va ish faoliyati kabi shaxsiy so'rovlar o'tkazilganligi holatlarini kuzatdi.

⁴⁸ Fuqarolar ro'yxatlardagi bunday xatoliklar bo'yicha RUKga shikoyat qilishlari mumkin, ular ushbu masala bo'yicha 24 soat ichida qaror qabul qiladilar. Ovoz beruvchilar ro'yxatini o'zgartirishga referendum kuniga besh kun qolgungacha ruxsat beriladi.

⁴⁹ [Venetsiya komissiyasining Referendumlarni o'tkazish bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksi](#) I.1.2-bandida ovoz berish kuni ovoz berish uchastkasida ro'yxatdan o'tish taqiqlanadi.

⁵⁰ Xususan, RUKning ko'plab raislari va kotiblari DIIHB RKCHMga ovoz beruvchilar yashash joyidan qat'i nazar, qo'shimcha ovoz beruvchilar ro'yxatiga kiritilishi mumkinligi va referendum kunida RUK SYERga o'zgartirishlar kiritish uchun mas'ul ekanligini ta'kidladilar. [Venetsiya Komissiyasining Saylov masalalari bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksi](#) I. 1.2.-bandida "saylovchilar yakuniy ro'yxati e'lon qilingan kundan boshlab ko'chib ketgan yoki qonunda belgilangan saylov yoshiga yetgan shaxslarga ovoz berish huquqini taqdim qilish" uchun qo'shimcha ro'yxatdan qisman foydalanishga ruxsat beriladi. MSK DIIHB RKCHMga qo'shimcha saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan saylovchilar soni to'g'risidagi statistik ma'lumotlar saqlanmayotganini ma'lum qildi.

Ilg'or xalqaro amaliyotga ko'ra, qo'shimcha ro'yxatlardan faqat saylovchilar ro'yxatlari yakuniy e'lon qilingan kundan boshlab ovoz berish kunigacha yashash joyini o'zgartirgan shaxslarga ruxsat berilishi mumkin edi. Bunday tartibni noto'g'ri ishlatishga qarshi tegishli himoya choralari mavjud bo'lishi zarur.

Toshkent shahridagi 50 ta ovoz berish uchastkasi ovoz beruvchilarni elektron identifikatsiya qilish uskunasi bilan ta'minlangan bo'lib, bu uskunalar aynan shu referendumda tajribadan o'tkazildi⁵¹. Mazkur saylov uchastkalarida shaxsni tasdiqlovchi skanerlar va videokameralar orqali yuzni tanish hamda saylovchilar shaxsi tasdiqlanganidan so'ng ularga tegishli saylov varaqalari taqdim etildi. Markaziy saylov komissiyasining DIIHB RKCHMga bildirishicha, bu uskuna Adliya vazirligi orqali sotib olingan, referendum kunigacha hech qanday texnik hujjatlar ochiq bo'lmagani va uskunani sinovdan o'tkazish va saylovchilarni autentifikatsiya qilish qurilmalari operatorlarini o'qitish uchun vaqt chegaralanganligi haqida ma'lum qildi va bu, tabiiyki, xalqaro ilg'or tajribalarga ziddir. Bundan tashqari, saylovchilar haqida ma'lumot olish kampaniyasi cheklangan bo'lib, DIIHB RKCHM suhbatdoshlarining aksariyati ushbu saylov uchastkalarida biometrik identifikatsiyani sinovdan o'tkazishdan bexabar edilar.⁵²

Saylov jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq muhim o'zgarishlar keng jamoatchilikka xabardor qilingan holda amalga oshirilishi zarur. Oshkoralikni oshirish uchun hokimiyat saylovchilarga texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'proq ma'lumot berishi kerak.

VIII. REFERENDUM KAMPANIYASI

Referendumning rasmiy kampaniyasi 15-martda boshlanib, 28-aprel kuni yarim tunda yakuniga yetkazildi. Referendum o'tkaziladigan kun va undan bir kun oldin referendum haqida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish qonun bilan taqiqlanadi. Referendum to'g'risidagi qonunda barcha fuqarolar va jamoat birlashmalariga referendum kampaniyasi o'tkazish huquqini kafolatlovchi umumiy qoida mavjud. Xalqaro ilg'or amaliyotlardan farqli ravishda, qonunchilik davlat organlarining betarafligini e'tirof etmasligi barobarida, mansabdor shaxslarning referendumdan oldingi targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishlarini tartibga solmaydi⁵³. Bu boradagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning yo'qligi esa, davlat resurslaridan noto'g'ri foydalanishga yo'l ochishi bilan birga, ovoz beruvchilarni referendum haqida xabardor qilish va referendum takliflarini ilgari surish o'rtasidagi chegarani yo'qqa chiqarishga imkoniyat yaratib berdi⁵⁴. DIIHB RKCHMning bir necha suhbatdoshlari referendumga tayyorgarlik jarayonida faollar va blogerlar ma'muriy yoki jinoiy

⁵¹ O'zbekistonda biometrik ro'yxatga olish jarayoni 2011-yilda boshlangan. Raqamli texnologiyalar vazirligining DIIHB RKCHMga ma'lum qilishicha, mamlakatda aholining 99,9 foizi biometrik identifikatsiya hujjatlariga ega.

⁵² Markaziy saylov komissiyasi DIIHB RKCHMni mazkur tajriba loyihaga tayyorgarlik qilayotgani haqida xabardor qilgan bo'lsa-da, ovoz beruvchilarning biometrik identifikatsiyasini sinovdan o'tkazish bo'yicha rasmiy qaror 12-aprelda qabul qilingan. [Xalqaro ilg'or amaliyot](#) shaffof jarayon va yangi texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etishni talab qiladi.

⁵³ Qonunchilikka ko'ra, axborot maqsadlaridan tashqari, tarhg'ibot-tashviqot ishlari uchun tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy to'lovlarni bepul yoki imtiyozli ravishda taqdim etilishi taqiqlanadi. DIIHB RKCHM siyosiy partiyalarning aksariyat tadbirlari jamoat/davlat binolarida o'tkazilganligini kuzatdi.

⁵⁴ [Referendumlarni o'tkazish bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksi](#) I.3.1.b-bo'limida keltirilishicha: "Hokimiyat tomonidan davlat mablag'laridan saylovoldi targ'ibot ishlari maqsadlarida foydalanish taqiqlanishi zarur". DIIHB RKCHM kuzatuvchilari Andijon viloyati, Buxoro viloyati Navoiy viloyati va Nukus shahrida (Qoraqalpog'iston viloyati) referendumdan oldingi targ'ibot-tashviqot tadbirlari davomida o'z mansabi va davlat resurslarining suiiste'mol qilinish holatlari kuzatilgan. Qarang: [DIIHB va Venetsiya komissiyasining Siyosiy partiyalarni tartibga solish bo'yicha 2020-yilgi yo'riqnomalari](#) 250-bandi: "Davlat resurslarini suiiste'mol qilish xalqaro me'yorlar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konventsiyasi 9-moddasi bilan ham, har qanday makonda va zamonda qoralanadi". DIIHB RKCHM quyi darajadagi referendum ma'muriyati a'zolarining Konstitutsiya loyihasini ochiq-oydin qo'llab-quvvatlaganligi holatlarini kuzatdi.

jazoga tortilganini, bu esa jarayon davomida so'z erkinligidan foydalanishni yanada cheklaganini ta'kidladi.⁵⁵ Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirishlar va referendumga qarshi biror muxolif harakatlar kuzatilmadi.

Davlat tomonidan Konstitutsiya loyihasi ochiq targ'ib qilingan holda, butun mamlakat bo'ylab ovoz beruvchilarni referendumga chorlandi. Kiritilayotgan o'zgartirishlar qo'llab-quvvatlanib, ochiq havoda keng ko'lamli konsertlar, mitinglar va madaniy tadbirlar tashkil etildi va referendum kuniga tayyorgarlik ko'rish jarayonida targ'ibotning jadalligi ortib bordi⁵⁶. Shu bilan birga, davlat mansabdor shaxslari va parlament partiyalarining "Ha!" kampaniyasi hukumat tomonidan o'zgartirishlarni ma'qullashni rasman targ'ib qilish bilan uyg'unlashib, partiya va davlat o'rtasida bo'lishi kerak bo'lgan tafovutni yo'qqa chiqardi. Qolaversa, bu 1990-yildagi YXHT Kopengagen hujjatining 5.4-bandiga zid edi⁵⁷. Bundan tashqari, xalqaro standartlarga zid ravishda, DIIHB RKCHM tuzatishlar hukumat tomonidan ma'qullanishi uchun ko'plab mahalla qo'mitalari tomonidan saylovchilarga noqonuniy ta'sir ko'rsatish holatlarini kuzatgan⁵⁸. Qolaversa, DIIHB RKCHM kuzatuvchilari targ'ibot tadbirlarida ishtirok etish uchun jamoatchilikka bosim o'tkazish va ma'muriy resurslardan keng foydalanishning boshqa holatlarini ham qayd etdilar⁵⁹.

Huquqiy baza davlat va mahalliy mansabdor shaxslar tomonidan mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishning oldini olishning samarali kafolatlarini o'z ichiga olishi, davlat xizmatchilariga bosim o'tkazishni taqiqlashi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar uchun mutanosib jazo choralari ko'rish zarur.

⁵⁵ 28-mart kuni huquq himoyachisi Tatyana Dovlatova O'zbekistonda inson huquqlari himoya qilinmasligi haqida norozilik bildirgan plakat ko'targani uchun hibsga olingan va u referendum kampaniyasida qatnashmasligi haqida ogohlantirish bayonnomasini imzolashga majbur bo'lgan.

⁵⁶ "Konstitutsiya meniki, sizniki, bizniki!" shiori ostida davlat tomonidan o'tkazilayotgan rasmiy aksiya doirasida loyihani qo'llab-quvvatlash bo'yicha targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Navoiy, Nukus va Jizzax harbiy garnizonlarida Oliy Majlis vakillari, harbiy prokuror va boshqa mansabdor shaxslar ishtirokida tadbirlar o'tkazildi; Samarqand shahridagi davlat O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida targ'ibot tadbiri o'tkazildi; Andijon shahridagi Hokim sport maktabi sport arenasida Madaniyat vaziri ishtirokida keng ko'lamli targ'ibot festivali bo'lib o'tdi; Nukusda Yoshlar ishlari bo'yicha davlat agentligi tomonidan tadbir tashkil etildi.

⁵⁷ DIIHB RKCHMning ta'kidlashicha, Andijon, Nukus, Yangiqo'rg'on, Qarshi, Mingbuloq, Samarqand va Buxoro shaharlarida hukumatdagi yetakchi partiya O'zLiDeP rasmiy logotip va bannerlar, bayroqlar va shiorlar bilan turli tadbirlar o'tkazgan, bu esa ularning referendumni davlat nomidan targ'ib qilishini anglatadi; O'zMTDP xuddi shunday tadbirlarni Kitob, Buxoro va Nukusda o'tkazgan; O'zXDP esa, Toshkent, Qarshi va Andijon shaharlarida shu kabi tadbirlar o'tkazgan; Xalq demokratik partiyasi ham Andijon, Qarshi va Toshkent shaharlarida shu kabi tadbirlar tashkil qilgan; O'zbekiston "Adolat" demokratik partiyasi esa, Toshkentda va [Samarqanddagi Davlat chet tillar institutida](#) shunday tadbirlar o'tkazgan; Nukus, Qarshi va Navoiyda esa, O'zbekiston Ekologik partiyasi ham shu mazmundagi tadbirlar tashkil qilgan. [1990-yilgi YXHT Kopengagen hujjatining](#) 5.4-bandida "davlat va siyosiy partiyalar o'rtasida aniq chegara bo'lishi zarur"ligi ta'kidlanadi.

⁵⁸ Paragraph 7.7 of the [1990-yilgi YXHT Kopengagen hujjatining](#) 7.7-bandida ta'kidlanishicha "Ishtirokchi davlatlar "qonunchilik va davlat siyosati siyosiy kampaniyalarni adolatli va erkin muhitda o'tkazilishini ta'minlash, ularda na ma'muriy harakatlar, na zo'ravonlik va na qo'rqitish harakatlari partiyalar va nomzodlarning o'z qarashlari va salohiyatini erkin ifoda etishiga to'sqinlik qilishiga yoki saylovchilarning ularni o'rganishi va muhokama qilishi yoki o'ch olishdan qo'rqmasdan ovoz berishiga to'sqinlik qilishiga yo'l qo'yilmasligi kerak"ligi aytib o'tiladi".

⁵⁹ 27-mart kuni Toshkent shahar hokimi Konstitutsiya loyihasini targ'ib qilish bo'yicha targ'ibot guruhlarini tashkil etish to'g'risida [qaror qabul qildi](#). Bu guruhlariga mahalla raislari, o'qituvchilar, shifokorlar, yoshlar yetakchilaridan iborat 1000 dan ortiq kishilar jalb etilgan bo'lib, 11 mingdan ortiq mahalla a'zolari ularga yordam berishdi. [Ommaviy axborot vositalarida tarqalgan xabardan](#) so'ng, 31-mart kuni bu qaror bekor qilindi. Andijonda O'zLiDeP tomonidan bir o'rta maktabda referendum kampaniyasi doirasida tadbir bo'lib o'tdi, unda qatnashgan o'qituvchilarning aytishicha, bu tadbirda qatnashmaslik maktab direktoriga bo'ysunmaslik va hurmatsizlik sifatida baholanishini aytdi. Ommaviy axborot vositalarida bolalarni bog'chada tashviqot shiorlarini aytishga majburlanganini haqidagi xabarlardan so'ng Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi bayonot berib, boshqa shu kabi holatlarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar berildi. DIIHB RKCHM Navoiy viloyatida Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi tomonidan mahalliy stadionda keng ko'lamli tadbir tashkil etilgani va unda qatnashish uchun o'quvchilarga maktabdan ruxsat berilganini e'tirof etdi; Yangiqo'rg'on tumanida O'zLiDeP targ'ibot tadbiriga qatnashish uchun maktab formasidagi bolalar guruhlari olib kelindi.

Amaldagi prezidentning prezidentlik mandatiga taalluqli tuzatishlar loyihasi asosiy masala ekanligi keng jamoatchilik tomonidan tushunilganiga qaramay, mavzu ochiq muhokama qilinmadi. Davlat tomonidan bu masalalar bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar xolis va muvozanatli bo'lmaganligi sababli, bu ovoz beruvchilarning ongli tanlov qilish imkoniyatini cheklab qo'ydi, bu esa, xalqaro ilg'or amaliyotga ziddir⁶⁰. Barcha partiyalar va ko'plab davlat mansabdor shaxslari jamoatchilikka murojaat qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalandilar. Anonim platformalar va bir qator taniqli faollar kampaniya davomida xotin-qizlar, ijtimoiy muammolar va korrupsiya kabi turli mavzularda turli xil ma'lumotlarni taqdim etdi. Bunda, asosan, *Telegram*, *Facebook* va *YouTube* ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanildi. Referendum kampaniyasi davrida DIIHB RKCHM provakatsiya qilish holatlarini kuzatmagan.

Gender masalalari kampaniyaning sezilarli mavzusiga aylandi, chunki OAVda faollar guruhining mansabdor shaxslar tomonidan voyaga yetmagan yetim bolalarga nisbatan jinsiy zo'rvonlik sodir etilgani va keyinchalik ularga nisbatan yengil jazo qo'llanilganligi haqidagi hisoboti keng muhokamaga sabab bo'ldi⁶¹. Bu holat saylovoldi kampaniyasi davomida jamoatchilik noroziligi va munozaralarga sabab bo'ldi va xotin-qizlarning adliya tizimidan foydalanishda davom etayotgan muammolarga urg'u berdi⁶². 2023-yil 6-aprelda Senat jinsiy zo'rvonlikdan jabr ko'rgan shaxslarni huquqiy himoya qilish doirasini kengaytiruvchi ijobiy tuzatishlarni ma'qulladi⁶³.

DIIHB RKCHM tomonidan kuzatilgan saylovoldi kampaniyasining qariyb 90 foizida harakatlanish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun sharoit yaratilgan bo'lsa-da, nogironlar huquqlari bilan bog'liq masalalar bunday kampaniyalarda o'z aksini topmagan. Referendum bo'yicha tashkil qilingan ba'zi o'quv videoroliklarda imo-ishora tilidan foydalanildi.

IX. OVOZ BERISH KAMPANIYALARINI MOLIALASHTIRISH

Referendum to'g'risidagi qonunga ko'ra, referendum o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar davlat byudjeti hisobidan qoplanadi⁶⁴. Respublikadagi jamoat birlashmalari va fuqarolar o'z mablag'larini ixtiyoriy ravishda referendum jarayonlari uchun MSKga xayriya sifatida berishlari mumkin, biroq MSK ma'lumotlariga ko'ra, mazkur referendum uchun bunday mablag'lar kelib tushmagan. Referendum oldi targ'ibot ishlarini moliyalashtirish masalasida xususiy sektorning ham, davlat

⁶⁰ [Referendumlarni o'tkazish bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksida](#) shunday deyilgan: "Ma'muriy organlar o'zlarining betaraflik majburiyatiga rioya qilishlari zarur, bu esa ovoz beruvchilarning o'z fikrini erkin bildira olishini ta'minlash vositalaridan biri hisoblanadi (...) Hokimiyat xolis axborot taqdim etishi shart... [va] ortiqcha, biryoqlama tashviqot natijasida ovoz berish natijasiga ta'sir o'tkazmasligi lozim".

⁶¹ *Nemolchi.uz* – bu gender zo'rvonligidan jabr ko'rgan shaxslarning anonim hikoyalarni to'plab, nashr etuvchi onlayn platformadir. 3 may kuni *Nemolchi.uz* asoschisi Irina Matvienko Telegram tarmog'ida o'lim tahdidi kelib tushganidan so'ng vaqtincha mamlakatni tark etganini ma'lum qildi.

⁶² [O'zbekistonning Oltinchi davriy hisoboti bo'yicha o'zining yakuniy xulosalarida](#) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish bo'yicha qo'mitasi shunday ta'kidlaydi: "Xotin-qizlarning odil sudlovdan foydalanish imkoniyati yo'lidagi doimiy to'siqlar, shu jumladan, ularning huquqlari va ulardan foydalanish uchun mavjud bo'lgan himoya vositalari to'g'risidagi bilimlarining cheklanganligi, sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining "Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyani qo'llash imkoniyatlarining cheklanganligi, shuningdek, sudlarning gender tarafdashligi, doimiy gender stereotiplari va xotin-qizlarga nisbatan gender asosidagi zo'rvonlik holatlarida mahallalar oldida yarashuv tartib-qoidalaridan foydalanish hamon saqlanib qolmoqda".

⁶³ O'zgartirishlar xotin-qizlarga tazyiq o'tkazish va zo'rvonlik qilish uchun javobgarlikni nazarda tutadi, jinsiy zo'rvonlik qilgan jinoyatchilarni muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilishga yo'l qo'ymaydi va jinsiy zo'rvonlikdan jabr ko'rgan shaxslarning yoshini bilmaslik qilingan jinoyatni yengillashtiruvchi shart sifatida hisoblanishiga yo'l qo'ymaydi.

⁶⁴ MSKning byudjetni tasdiqlash to'g'risidagi 121-sonli qarorida referendum jarayoniga sarflanuvchi xarajatlar qariyb 14,5 million yevro deb baholangan.

tomonidan moliyalashtirish tartibi ham, shuningdek, badallar yoki xarajatlarning yuqori chegarasi ham qonunchilikda keltirilmagan⁶⁵. Konstitutsiyaga taklif etilayotgan o'zgartirishlarni qo'llab-quvvatlash yoki ularga qarshi chiqish uchun aniq belgilangan qoidalarining mavjud emasligi, referendumdan oldingi targ'ibot-tashviqot ishlari daromadlari va xarajatlari bo'yicha hisobot berish va nazorat qilish tartib-qoidalarining yo'qligi ovoz berish jarayonining shaffofligiga putur yetkazdi. DIIHB RKCHMning viloyatlardagi suhbatdoshlari fikricha, saylovoldi kampaniyasi tadbirlari va ishlab chiqilgan materiallar siyosiy partiyalarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilganligini, bunday mablag'larning kelib chiqishi yoki xarajatlar taqsimoti haqida hech qanday ma'lumot berilmagan. Bundan tashqari, siyosiy partiyalarning moliyaviy hisobotlari ularning moliyaviy hisoboti bo'yicha muntazam majburiyatlari bilangina cheklanib qolmoqda. Referendum kunigacha referendum o'tkazish uchun ajratilgan davlat byudjeti mablag'larining sarflanishi yoki taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinmadi.⁶⁶

Shaffoflik va hisobdorlikni oshirish uchun referendum kampaniyasini moliyalashtirish jarayoni aniq tartibga solinishi zarur. Barcha manfaatdor tomonlar va nazorat qiluvchi organ uchun daromadlar va xarajatlar to'g'risida batafsil hisobot berish talablari mavjud bo'lishi kerak.

X. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

A. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MUHITI

Media muhitini ko'p sonli ommaviy axborot vositalari tashkil qiladi.⁶⁷ Barcha ommaviy axborot vositalari Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida (AOKA) ro'yxatdan o'tishlari shart. Garchi DIIHB SMM suhbatdoshlari ro'yxatdan o'tish jarayonini og'ir deb hisoblamagan bo'lsalarda, bir qator xalqaro tashkilotlar ularni ro'yxatdan o'tish talabi ortiqcha deb hisoblaydi.⁶⁸ Davlat tomonidan moliyalashtiriluvchi Milliy teleradiokompaniya (MTRK) mamlakat miqyosida va hududiy axborotni yorituvchi ko'p sonli ommaviy axborot vositalarini boshqaradi. U cheklangan reklama bozorida, asosan, poytaxtda joylashgan tijorat OAV bilan raqobatlashadi.⁶⁹ Faqat juda oz sonli OAV o'z xarajatlarini qoplay oladigan darajada faoliyat ko'rsatadi. MTRK Bosh direktori Prezident bilan kelishilgan holda hukumat tomonidan tayinlanadi⁷⁰.

Fikrlar xilma-xilligini targ'ib qilish uchun Milliy teleradiokompaniyani rahbariyati mustaqil tayinlanuvchi va ijtomoiy mandati aniq belgilangan chinakam ommaviy axborot vositalariga aylantirish tavsiya etiladi. Davlat teleradiokompaniyasini moliyalashtirish modeli ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashi zarur. Bunday ommaviy axborot vositalaridan yangiliklar,

⁶⁵ Qarang: [Referendumlarni o'tkazish bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksining](#) 35-moddasi: "Ta'kidlash joizki, imkoniyatlar tengligi tamoyili davlat mablag'lariga taalluqli bo'lib, bunday mablag'lar taqsimlanishida taklif tarafdorlari va qarshi tomonlar o'rtasida tenglik ta'minlanishi zarur.

⁶⁶ Markaziy saylov komissiyasining 1186-sonli qaroriga ko'ra, Markaziy saylov komissiyasi referendum natijalari e'lon qilingan kundan boshlab bir oy muddatda Moliya vazirligiga referendum o'tkazish mablag'lari qanday foydalanilganligi to'g'risidagi xulosani taqdim etishi shart.

⁶⁷ Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ma'lumotlariga muvofiq, O'zbekistonda jami 736 ta davlat OAV va 1180 ta tijorat OAV ro'yxatga olingan.

⁶⁸ Vazirlar Mahkamasining 2022-yilga mo'ljallangan "Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorida ommaviy axborot vositalarini ro'yxatga olishning soddalashtirilgan mexanizmi nazarda tutilgan. Qarang: [2011-yilda FSHXPga berilgan 34-umumiy izohlarning 39-bandi](#); BMTning Fikr va so'z erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi, YXHTning OAV erkinligi bo'yicha vakili va Amerika davlatlari tashkilotining (OAS) so'z erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisining OAV erkinligi bo'yicha joriy muammolar bo'yicha [2003-yilgi qo'shma deklaratsiyasi](#) va [2005-yilgi qo'shma deklaratsiyasi](#) ga qarang.

⁶⁹ 12 ta milliy, shuningdek, 14 ta hududiy teleradiokompaniya va 4 ta radiostansiya MTRK tarkibiga kiradi.

⁷⁰ [FSHXPga 34-sonli umumiy izohning](#) 16-bandida davlatlar ommaviy e'firga uzatish xizmatlarining mustaqilligi va tahririyat erkinligini kafolatlashi shart.

dolzarb voqealar va muhokama dasturlarida, shu jumladan referendumni yoritishda muvozanatli va xolis xabar berishlari talab qilinishi lozim.

“Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi qonunga ko'ra, ommaviy axborot vositalari ustav fondidagi xorijiy hamkorlar ulushi 30 foizdan yuqori bo'lishi taqiqlanadi va mahalliy ommaviy axborot vositalariga xorijdan mablag' olish taqiqlanadi. Tijorat ommaviy axborot vositalarining mulki to'g'risidagi ma'lumotlar ommaga ochiq e'lon qilinmaydi. DIIHB RKCHM suhbatlashgan ba'zi kishilar ayrim ommaviy axborot vositalariga tanqidiy xabarlar, jumladan Konstitutsiyaga kiritilishi ko'zda tutilgan o'zgartirishlar haqida tanqidiy ruhdagi fikrlardan so'ng, ularga bosim o'tkazilganligi haqida xabar berishdi. 2023-yilning 5-aprelida Sof.uz internet nashri “Anorbank”ga tuhmat qilganligi bo'yicha da'vo arizasiga ko'ra yetkazilgan zarar uchun bu internet nashridan 3,7 milliard so'm tovon puli undirilishi bo'yicha sud qarori chiqarildi⁷¹. Mamlakatda birorta ham xalqaro ommaviy axborot vositalari nodavlat tashkiloti ro'yxatga olinmagan⁷².

2016-yilda prezident o'zgargandan so'ng, onlayn maydonga biroz erkinlik berilishi mahalliy hokimiyat va ijtimoiy masalalar bo'yicha muayyan tanqidiy hisobotlarni taqdim etish imkonini berdi.⁷³ Biroq yuqori mansabdor shaxslarni bevosita tanqid qilish deyarli imkonsiz bo'lib qolmoqda.⁷⁴ DIIHB RKCHM ma'lumotlariga ko'ra, jurnalistlar va blogerlar pora olish, tahdidlar, hibsga olish holatlariga duch kelishmoqda yoki kontentni olib tashlashga majbur bo'lmoqda. DIIHBning bir qator suhbatdoshlari xabar berishicha, o'zini o'zi senzura qilish hamon odatiy hol bo'lib qolmoqda.

B. HUQUQIY BAZA

Konstitutsiya, Jinoyat kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asossiz cheklovlar tufayli so'z erkinligi va axborot olish huquqiga zarar yetishda davom etmoqda.⁷⁵ Xalqaro tashkilotlar

⁷¹ Fuqarolik Kodeksi xolis fikrlar bildiruvchi nashrni himoya qilishni nazarda tutmaydi, qolaversa, turli mavzular, jumladan jamiyat muammolarini ifodalovchi xabarlarini isbotlash mas'uliyati sudlanuvchiga yuklanadi. Qonun nomoddiy himoya vositalari yoki moddiy kompensatsiyaning yuqori chegarasini ko'zda tutmaydi BMTning Fikr va so'z erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi, YXHTning OAV erkinligi bo'yicha vakili va Amerika davlatlari tashkilotining (OAS) so'z erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisining OAV erkinligi bo'yicha joriy muammolar bo'yicha [2000-yildagi qo'shma deklaratsiyasida](#) tuhmat uchun fuqarolarga belgilanadigan jarimalar miqdori so'z erkinligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan darajada yuqori bo'lmasligi va da'vogarga tovon to'lash yoki javobgarni jazolash uchun emas, balki putur yetkazilgan obro'ni tiklash uchun mo'ljallangan bo'lishi kerakligi ko'rsatilgan; xususan, pul ko'rinishidagi jarimalar yetkazilgan haqiqiy zararga qat'iy mutanosib bo'lishi va qonun ma'naviy himoya vositalaridan foydalanishni birinchi o'ringa qo'yishi zarur.

⁷² DIIHB RKCHM suhbat qilgan fuqarolarning ma'lum qilishicha, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil iyundagi qaroriga ko'ra, mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlari xorijiy grantlar olish uchun davlat muassasasi bilan “hamkorlik” qilishlari shart qilib qo'yilganligi uchun, Xalqaro “Internews” OAV nodavlat tashkiloti mahalliy hamkorlar orqali endi yirik loyihalarni amalga oshira olmaydigan bo'ldi.

⁷³ Referendum kampaniyasi davrida, boshqa muammolar qatori, xotin-qizlar va voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik masalasi ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, so'ngra internet ommaviy axborot vositalarida ham keng yoritildi.

⁷⁴ 2022-yil dekabrda Shohida Salomova ijtimoiy tarmoqlarda boshqa blogerga tuhmat qilganligi va uni haqoratlaganligi uchun Jinoyat kodeksining 139 va 140-moddalarini buzganlikda ayblangan edi. Tergov jarayonida sud-psixiatriya ekspertizasi asosida, Shohida Salomova tibbiy muassasaga joylashtirildi. OAV xabarlariga ko'ra (O'zbekistonda “Ozodlik radiosi”ga kirish cheklangan), shundan so'ng u Telegram tarmog'ida prezident va uning oila a'zolarini qarindosh-urug'chilik va korrupsiyada ayblaganidan keyin u hibsga olinganligi aytib o'tiladi.

⁷⁵ *Respublika Konstitutsiyasida “mavjud konstitutsiyaviy tuzum va qonunda belgilangan ayrim hollarda”, shuningdek, “biron-bir davlat yoki boshqa sirga aloqador bo'lgan” holatlarga asoslanib, muayyan cheklovlarga ruxsat beriladi.* FSHXPning 19.3-moddasida cheklovlar “qonunda ko'zda tutilgan bo'lishi” kerakligi nazarda tutilgan, ya'ni ular shaxsga o'z xulq-atvorini mos ravishda tartibga solish imkonini beradigan darajada aniqlik bilan taqdim qilinishi kerakligini belgilaydi. Bundan tashqari, ular faqat “boshqalarning huquqlari yoki obro'e'tiborini hurmat qilish” yoki “milliy xavfsizlik yoki jamoat tartibini yoki jamoat salomatligi yoki axloqini himoya

avval ham Jinoyat kodeksida terrorism, diniy ekstremizm, separatizm, ekstremistik materiallarni saqlash va tarqatish, konstitutsiyaviy tuzumga putur yetkazishga urinishlar bo'yicha bir qator va maromiga yetkazilmagan tartiblar huquqiy ishonchni ta'minlamasligi hamda kishilarning diniy e'tiqod erkinligi, fikr erkinligi, ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish erkinliklarini haddan ziyod cheklash maqsadida qo'llanilayotganini ta'kidlagan edi⁷⁶.

Barcha asosiy erkinliklar, shu jumladan so'z erkinligiga cheklovlar qonuniylik, zarurat va mutanosiblik tamoyillariga qat'iy muvofiq bo'lishi zarur.

DIIHBning avvalgi tavsiyasiga qaramay, tuhmat uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi o'z kuchida qolmoqda va prezidentni haqorat qilish besh yilgacha qamoq jazosi bilan jazolanadi.⁷⁷ Bundan tashqari, qonunchilik "yolg'on ma'lumot" tarqatishni jinoiy javobgarlikka tortadi. DIIHB RKCHM suhbatlashgan bir necha kishi referendum arafasida nohaq ayblovlar qo'yish holatlar qo'llanilishi biroz kuchayganligi haqida xabar berishdi⁷⁸. DIIHB RKCHMning ba'zi suhbatdoshlarining ta'kidlashicha, yangi Konstitutsiya loyihasida inson huquqlari himoyasini kuchaytirish haqida bong urilayotganiga qaramay, uning qoidalari so'z erkinligi huquqini yetarli darajada kafolatlamaydi⁷⁹. Qolaversa, DIIHB RKCHM suhbatdoshlari Axborot kodeksi loyihasida, jumladan, ommaviy axborot vositalari, vositachilar va blogerlarni axborotning "to'g'riligi" uchun javobgarlikka tortishga oid qoidalar mavjudligidan xavotir bildirdilar.

Tuhmat va boshqa tegishli qoidalar, jumladan, "haqorat" va "yolg'on ma'lumot"ni tarqatish xalqaro standartlarga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiluvchi harakat sifatida talqin qilinmasligi zarur. Tuhmatga oid qonunlar faqat fuqarolik xarakteriga ega bo'lishi va huquqiy himoyaning fuqaroviy vositalari moddiy huquqlardan ustun bo'lishi kerak.

Veb-saytlar yoki boshqa ommaviy "axborot resurslari" egalari, shu jumladan blogerlar uchinchi tomon kontentining qonuniy muvofiqligi va aniqligini kuzatishi lozim. Qonun xalqaro standartlarga zid ravishda, onlayn kontentni noqonuniy deb topish uchun haddan tashqari keng asoslarni ko'rsatib

qilish" kabi asoslardan biri uchun qo'llanilishi mumkin hamda ular zaruriyat va mutanosiblikning qat'iy talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

⁷⁶ Jinoyat kodeksining 155, 159, 161 va 244-moddalari. Qarang: [BMTning Terrorizmga qarshi kurashda inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachisining 2022-yilgi O'zbekistonga tashrifidagi hisoboti..](#)

⁷⁷ [FSHXPga berilgan 34-umumiy izohlarning](#) 47-bandida "Ishtirokchi-davlatlar tuhmatni jinoiy javobgarlikka tortmaslik masalasini ko'rib chiqishlari va jinoyat qonunchiligining qo'llanilishida, faqat eng og'ir holatlarni istisno qilgan holda, buning uchun qamoq jazosi hech qachon tegishli jazo emasligi hisobga olinishi kerak"ligi ta'kidlanadi. Jinoyat kodeksiga 2020-yilda kiritilgan o'zgartirishlar asosida tuhmat va haqorat uchun jazo sifatida qamoq jazosi olib tashlangan bo'lsa-da, ular baribir jarima, axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikni cheklash bilan jazolanuvchi jinoiy huquqbuzarlik bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, 2021-yilda prezidentga tuhmat qilish va uni haqoratlash internet OAV va ijtimoiy tarmoqlar uchun ham amal qiladigan bo'ldi. [OAV ma'lumotlariga](#) ko'ra, 2022-yil fevralda tuman sudi bloger Sobirjon Bananiyozovni Facebook ijtimoiy tarmog'idagi bir guruhda prezident va uning qizi, shuningdek, sobiq prezident Islom Karimovni haqorat qilgani uchun uch yil muddatga ozodlikdan mahrum qilgan.

⁷⁸ 2023-yil 17-mart kuni Qoraqalpog'istonda 2022-yil iyulida bo'lib o'tgan namoyishlar ortidan jurnalist Yesimkan Qanaatov "tartibsizliklar uyushtirish" va "diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g'oyalari o'z ichiga olgan axborot va materiallarni tarqatish" aybi bilan 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi. Shu kuni jurnalist Abdimalik Xo'janazarov ham xuddi shunday moddalar bilan 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi. 2023-yil 16-mart kuni "Committee to Protect Journalists" ["Jurnalistlarini himoya qilish"] xalqaro nodavlat tashkiloti [O'zbekiston hukumatini qoraqalpog'istonlik jurnalistlarni o'z faoliyati uchun qamalmaslikka chaqirdi](#) (O'zbekistonda bu veb-saytga kirish cheklangan).

⁷⁹ Konstitutsiya loyihasida cheklovlarning qonuniy asoslari sifatida "davlat sirlari yoki qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa sirlarning oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik", shuningdek, "konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish" kabilar ko'rsatilgan. Bundan tashqari, unda ommaviy axborot vositalari erkinligi kafolatlangan bo'lsa-da, "ommaviy axborot vositalari" axborotning "ishonchligi" uchun ham javobgarlikka tortilishi mumkin.

o'tadi⁸⁰. Bir qator veb-saytlar, jumladan, "Ozod Yevropa" radiosining o'zbek tilidagi xizmatidan ("Ozodlik" radiosi) foydalanish imkoni yo'q. Bloklangan veb-saytlar ro'yxati va ularning sabablari hammaga ham ochiq e'lon qilinmaydi. 2021-yilda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunga kiritilgan o'zgartirishlardan so'ng Twitter, TikTok va VKontakte ijtimoiy tarmoqlari hamda Skype va WeChat messenjerlariga kirish taqiqlangan edi, biroq 2022-yil avgustida ulardan foydalanish imkoniyati tiklandi. Biroq *TikTok* tarmog'iga kirish hamon bloklanganligicha qolmoqda.

So'z erkinligi huquqidan samarali foydalanishni ta'minlash uchun Internetdagi har qanday cheklovlar shaffof bo'lishi, qonun bilan aniq belgilanishi va sud nazorati ostida bo'lishi zarur.

Referendum to'g'risidagi qonun umumiy qoidalarni o'z ichiga oladi va fuqarolarga, jamoat birlashmalariga referendum o'tkazish bo'yicha o'z fikrlarini, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida bildirish huquqini beradi. Shunga qaramay, bu qonun ommaviy axborot vositalari uchun referendum qoidalarini, jumladan, yangiliklarni xolis yoritish yoki referendumdan oldingi tashviqot ishlari uchun teng sharoitlarni kafolatlash talablarini belgilamaydi. Mazkur qonun referendumning "Ha" va "Yo'q" javob variantlarini teng yoki adolatli yoritishni nazarda tutmaydi.

C. OAV MONITORINGI NATIJALARI

DIIHB RKCHMning ommaviy axborot vositalari bo'yicha qilgan monitoringi natijalariga ko'ra, referendumni davlat va tijorat telekanallari orqali yoritishda turli muhokama dasturlari, shuningdek, Konstitutsiya loyihasiga kiritilgan ayrim tuzatishlarni targ'ib qiluvchi, asosan aholining muayyan qatlamlari, jumladan, yoshlar va o'qituvchilarga qaratilgan dasturlar va reklama roliklari e'firga berildi⁸¹. Qonunga zid bo'lmas-da, telekanallardagi reklamalarda ularni e'firga berishga kim ruxsat bergani yoki u roliklar e'firga berilishi uchun kim pul to'lagani oshkor etilmagan va bu shaffoflik tamoyiliga putur yetkazadi⁸². Yangiliklarda referendum tizimli ravishda ijobiy ohangda yoritildi, biror bir tanqidiy munosabab, shu jumladan bahsli o'zgartirishlar bo'yicha e'tirozli fikrlar e'firga uzatilmadi⁸³. Internet nashrlari referendum haqida nisbatan kamroq ma'lumot berib, bu haqda kamroq reklama roliklari e'lon qildilar, biroq ular Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirishlar bo'yicha tanqidiy fikrlar yoki maqolalar e'lon qilmadi. Umuman olganda, ommaviy axborot vositalari ovoz beruvchilarga xolis, mulohazali va tanqidiy axborot bermagan. 6-aprel kuni zo'rvonlikdan jabr ko'rgan shaxslarni himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan qonunchilikning qabul qilinishi paytida ommaviy axborot vositalarida xotin-qizlar muammosi keng yoritildi. Biroq Konstitutsiyaning yangi loyihasini OAVda targ'ib qilish jarayonida gender masalalariga bevosita e'tibor qaratilmadi.

XI. REFERENDUMDA NIZOLARNI HAL QILISH MASALASI

2022-yilda "Referendum o'tkazish to'g'risida"gi qonunga kiritilgan o'zgartirishlardan so'ng, so'nggi qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar referendum o'tkazish bo'yicha nizolarni hal qilish mexanizmini sezilarli darajada o'zgartirdi. Ushbu o'zgarishlar referendum bilan bog'liq nizolarni hal qilish uchun parallel yo'llarni bekor qiluvchi 2021-yilgi Saylov kodeksiga kiritilgan tuzatishlar bilan

⁸⁰ "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun axborotni cheklaydi, xususan, "jamiyatga, davlatga, davlat ramzlariga hurmatsizlikni namoyon etuvchi, shu jumladan beodoblik bilan ifodalangan axborotni tarqatish" va "ommaviy tartibsizliklarga, fuqarolarga nisbatan zo'rvonlik qilishga, shuningdek belgilangan tartibni buzgan holda o'tkaziladigan yig'ilishlar, mitinglarda, ko'cha yurishlarida va namoyishlarda ishtirok etishga da'vat qilish, shuningdek mazkur noqonuniy harakatlarni muvofiqlashtirish"ni taqiqlaydi.

⁸¹ 2023-yil 5-apreldan boshlab DIIHB RKCHM praym-taymda beshta telekanal: "O'zbekiston" (davlat telekanali), "O'zbekiston 24" (davlat telekanali), MY5, Sevimli, UzReport va beshta internet OAV Daryo.uz, Gazeta.uz, Kun.uz, Podrobno.uz va Qalampir.uz kabi beshta Internet OAV bo'yicha o'z monitoringini boshladi.

⁸² Monitoring qilingan telekanallarda referendumga oid jami 42 soat reklama roliklari e'firga uzatildi.

⁸³ E'firga uzatilgan turli ko'rsatuvlar, jumladan, yangiliklar, muhokama dasturlari va reklama roliklarining 87% qismi ijobiy mazmunda, 13% qismi esa, betaraf mazmunda bo'ldi.

moslashtirildi. O'zgartirish kiritilgan qonunchilikda referendum komissiyalarining qarorlari yoki harakatlari ustidan yuqori turuvchi komissiyalarga shikoyat qilish o'rniga sudlarning mutlaq vakolatlari belgilandi. Bundan tashqari, DIIHBning oldingi tavsiyalarini hisobga olgan holda protsessual muddatlar qisqartirildi.

Referendum to'g'risidagi qonunchilikda referendum bilan bog'liq nizolarni hal etishning ma'muriy va sud yorqali hal qilish yo'llari ko'zda tutilgan. Shikoyatlar referendum o'tkazuvchi tegishli komissiyalarga birinchi instansiyaga berilishi mumkin, ularning qarorlari esa, sud tartibida ko'rib chiqilishi shart. Referendum o'tkazuvchi quyi komissiyalarining qarorlari yoki harakatlari ustidan shikoyatlar besh kun ichida ma'muriy sudlarga berilishi mumkin, bunda Markaziy saylov komissiyasining qarorlari va harakatlari ustidan shikoyat qilish mutlaq vakolati Oliy sudga tegishlidir. Ilg'or tajribaga ko'ra, qonun hujjatlarida sudlar ham, referendum komissiyalari ham shikoyatlar berilgan kundan boshlab uch kun ichida, ovoz berish kuniga olti yoki undan kamroq kun qolganida esa, darhol ko'rib chiqishlari shart bo'lgan qisqa muddatlarni nazarda tutadi. Qonunchilik MSKning referendum natijalarini to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi qarori ustidan shikoyat qilishni nazarda tutadi, biroq MSKning referendum natijalarini tasdiqlovchi qaroriga e'tiroz bildirish imkoniyati haqida hech narsa deyilmaydi⁸⁴. Bu qonunda ROK yoki RUKning natijalar bo'yicha bayonnomasi ustidan shikoyat qilish mexanizmi ham aniq ko'rsatib o'tilmagan.

Ovoz berish yoki saylovoldi kampaniyasini o'tkazish huquqini qo'llashga to'sqinlik qilish, yashirin ovoz berish qoidalarini buzish yoki hujjatlarni qalbakilashtirish kabi ayrim referendum bilan bog'liq huquqbuzarliklar "Referendum to'g'risida"gi qonunga kiritilgan bo'lsa, ular uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi qonun va Jinoyat kodeksining moddalarida batafsil bayon etilgan; biroq ular qanday harakatlar huquqbuzarlik va tegishli jazo choralari ta'sir etuvchi omillar sifatida tasniflanishi yoki yo'qligini aniq belgilamaydi.

Huquqiy himoyaning samarali choralarni ta'minlash uchun qonunchilikka barcha darajadagi referendum natijalariga e'tiroz bildirish imkoniyatini aniq belgilab beruvchi o'zgartirishlar kiritilishi va bunday shikoyatlar bo'yicha yurisdiksiyani aniq belgilashi lozim.

Jarayonning hech qaysi bosqichida MSK, quyi bo'g'indagi referendum komissiyalari yoki sudlarga shikoyatlar kelib tushmagan. Markaziy saylov komissiyasi DIIHB RKCHMga referendum kunigacha turli kanallar orqali 308 ta murojaat kelib tushgani va ularning aksariyatiga javob berilgani, MSK vakolatiga kirmaydigan 77 ta so'rov esa, vakolatli davlat organlariga yuborilganini xabar berdi⁸⁵. MSK veb-saytida referendum bilan bog'liq shikoyatlarni to'plash uchun onlayn reestr mavjud emas. Ushbu murojaatlarning mazmuni haqidagi ma'lumotlar ham, MSK tomonidan berilgan javoblar ham e'lon qilinmagan, bu esa, jarayondagi shaffoflikning pasayishiga sabab bo'lgan. Referendum oldidan Markaziy saylov komissiyasining qo'ng'iroqlar markazi (kol-markaz) tashkil etilgan, biroq

⁸⁴ Oliy sud ma'lumotlariga ko'ra, bunday holatda MSK qarorlariga e'tiroz bildirish haqidagi umumiy qoidalar qo'llaniladi.

⁸⁵ Murojaatlar referendum jarayoni tartib-qoidalari, RUK bilan bog'liq turli masalalar bo'yicha tushuntirishlar yoki texnik masalalar bo'yicha ko'rsatmalarga oid bo'lgan. 77 ta holatning 36 tasi tuman va viloyat sudlarining qarorlaridan norozilik bildirish, sud hukmi yoki qarorlarini bekor qilish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xatti-harakatlaridan norozilik yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar kabi sud ishlariga oid; Murojaatlarning 31 tasi ijtimoiy, 5 tasi mahalla raisi saylovi, 2 tasi yer masalasi bo'yicha bo'lgan. Ular prokuratura va sud organlariga ko'rib chiqish uchun yuborilgan.

fuqarolarning bu markazga tushgan so'rovlari to'g'risidagi ma'lumotlar ochiq bo'lmagan va bunday xabarlarni ko'rib chiqish jarayoni shaffof bo'lmadi.⁸⁶

Markaziy saylov komissiyasi nizolarni hal etish jarayonining shaffofligini oshirish, shu jumladan, referendumga doir barcha shikoyatlar, murojaatlar va tegishli qarorlar bilan ochiq tanishish mumkin bo'lgan maxsus reestrni yaratish bo'yicha qo'shimcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Oliy sud ma'lumotlariga ko'ra, referendum o'tkazuvchi komissiyalarning qarorlari yoki harakatlari ustidan hech qanday darajadagi sudlarga shikoyatlar kelib tushmagan. Sud tizimidagi ijobiy tomonlardan biri, mamlakatda elektron sudlov tizimi joriy etilgan bo'lib, u orqali sudyalarga sud ishlarini elektron tarzda taqdim etish va avtomatik tarzda taqsimlash amalga oshiriladi. Ichki ishlar vazirligi va Bosh prokuratura saylovoldi kampaniyasi davomida referendum bilan bog'liq huquqbuzarlik holatlari huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kelib tushmaganligini ma'lum qildi.

DIIHB RKCHMning bir qancha suhbatdoshlari referendum kampaniyasining haqiqiy raqobatbardoshligi yo'qligiga ishora qildilar hamda qonun qoidalarini o'zboshimchalik bilan talqin qilish va qo'llash natijasida sud tizimiga bo'lgan ishonchning pasayganligini ta'kidladilar. DIIHB RKCHM suhbatdoshlari Jinoyat kodeksining bir nechta mujmal ishlab chiqilgan moddalari o'zboshimchalik bilan qo'llanilganligini ta'kidlab, sudda taqdim etilgan ekspert ko'rsatmalarining mustaqilligi va xolisligiga shubha bilan qaradilar.

Huquqiy himoyaning samarali choralarni ta'minlash uchun, vakolatli organlar murojaatlarning mazmunini to'liq va xolis ko'rib chiqishlari hamda xolis va shaffof ish olib borishlari lozim.

XII. FUQAROLAR VA XALQARO KUZATUVCHILAR

“Referendum to'g'risida”gi qonunda xalqaro kuzatuvchilar, mahalla qo'mitalari tomonidan tavsiya etilgan kuzatuvchilar, partiyalarning vakillari va agar referendum o'tkazish fuqarolarning tashabbusi bilan bo'lsa, tashabbuskor guruhlar referendumda ishtirok etishlari mumkinligi nazarda tutilgan⁸⁷. MSK 383 nafar xalqaro kuzatuvchini, shu jumladan, 14 ta xalqaro tashkilotdan 184 nafar va turli mamlakatlardan 199 nafar kuzatuvchini ro'yxatga olgan.

YXHT majburiyatlari va xalqaro standartlardan farqli o'laroq, fuqarolarning kuzatuvchi tashkilotlari kuzatuvchilar uchun o'z nomzodini bevosita ko'rsatishga haqli emas⁸⁸. Bunday imkoniyatning yo'qligi esa, referendum jarayonining shaffofligini pasaytiradi. ROK siyosiy partiyalardan 33 026 nafar kuzatuvchini akkreditatsiyadan o'tkazdi; MSK ma'lumotlariga ko'ra, mahallalardan 10 714 nafar kuzatuvchi akkreditatsiya qilingan. Referendumni barcha siyosiy partiyalar qo'llab-quvvatlagani, mahallalar esa, fuqarolarning ishtirok etishga faol da'vat etgani inobatga olinsa, referendumga qarshi chiqqan manfaatdor tomonlar hamda fuqarolar referendumni mustaqil kuzatish yoki mustaqil ichki kuzatuv natijalariga tayanish imkoniyatiga ega bo'lmadilar. DIIHB RKCHM saylov uchastkalarida, jumladan, qonunbuzarliklar kuzatilgan joylarda siyosiy partiyalar va

⁸⁶ DIIHB RKCHMga berilgan ma'lumotlarga ko'ra, referendum kuni va ungacha bo'lgan davrda MSK qo'ng'iroqlar markaziga (kol-markazidan) Konstitutsiya loyihasi bandlariga oid, ROK va RUK funksiyalari bo'yicha so'rovlar hamda referendum to'g'risidagi qonun-qoidalariga tushuntirishlar bo'yicha jami 1449 ta murojaat kelib tushgan. 16 ta murojaat shikoyat sifatida tasniflanib, vakolatli ROKlarga, xususan, sakkiztasi Toshkent shahriga, bittasi Toshkent viloyatiga, uchtasi Qahqadaryoga, ikkitasi Samarqandga, bittasi Qoraqalpog'iston Respublikasiga va bittasi Jizzaxga yuborildi. Qo'ng'iroqlar markaziga kelib tushgan 9 ta murojaat ovoz berish jarayonidagi qoidabuzarliklarga taalluqli bo'lib, ulardan faqat bittasi tasdiqlangan.

⁸⁷ Xalqaro kuzatuvchilar MSK tomonidan akkreditatsiya qilingan, qolganlari esa ROK tomonidan akkreditatsiya qilinadi.

⁸⁸ *Fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy tashkilotlardan kuzatuvchilikka nomzodlar faqat mahalla fuqarolar yig'ini tavsiyasi orqali ko'rsatilishi mumkin.*

mahallalardan ko'rsatilgan kuzatuvchilar bilan uchrashdi. Bunday kuzatuvchilari ovoz berish kuni kuzatilgan tartib-qoidalarining ko'plab buzilishlari haqida ma'lumot bermagan yoki oshkora bayon qilmagani bu kuzatuvchilarning xolisligiga shubha uyg'otgan.

YXHT majburiyatlariga muvofiq, qonunchilik fuqarolarning saylovlarni mustaqil kuzatishiga ruxsat berishi zarur.

XIII. ETNIK OZCHILIK VAKILLARINING ISHTIROKI

O'zbekiston ko'pmillatli mamlakat bo'lib, aholining asosiy qismi o'zbeklar, etnik ozchilik vakillari esa, jami aholining 16,3 foizini tashkil qiladi. Tojiklar, qozoqlar, ruslar, qoraqalpoqlar, tatarlar va turkmanlar milliy ozchiliklarning eng yirik vakillari hisoblanadi⁸⁹. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlarda ana shu etnik ozchilik vakillariga taalluqli o'zgarishlar yo'q. Referendum kampaniyasida etnik mavzularga ham katta e'tibor qaratilmadi.

DIIHB RKCHM kuzatib borgan referendum haqidagi ma'lumotlar va tashviqot tadbirlarining aksariyati faqat o'zbek tilida bo'lgan. Shunga qaramay, etnik ozchilik va boshqa tilda so'zlovchi xalqlar vakillari qonunchilikka kiritilayotgan o'zgartirishlarni targ'ib qiluvchi tadbirlarda ko'p qatnashdilar. Siyosiy partiyalar Konstitutsiya loyihasi boshqa etnik ozchilik tillarida ham chop etilgani va tarqatilgani haqida xabar berdi. Referendumga oid ayrim materiallar rus va qoraqalpoq tillarida ham chop etilgani qayd etildi.

Referendum to'g'risidagi qonunga ko'ra, referendumda ovoz berish byulletenlari davlat tilida, shuningdek, ROK qaroriga ko'ra tegishli okrug aholisining ko'pchiligi gapiradigan tillarda chop etiladi. MSK ma'lumotlariga ko'ra, saylov byulletenlarining 95,1 foizi o'zbek tilida, ayrim saylov okruglarida esa qoraqalpoq (2,4 foiz) va rus (2,5 foiz) tillarida chop etilgan. ROK boshqa tillarda saylov byulletenlari so'ramagan.

XIV. REFERENDUM KUNI

Cheklangan kuzatuv faoliyatlar metodologiyasiga muvofiq, DIIHB RKCHM referendum kunidagi jarayonlarni tizimli yoki keng qamrovli kuzatmagan bo'lsa-da, missiya a'zolari 19-26-aprelgacha bo'lgan muddatdagi oldindan ovoz berish davrida va referendum kuni barcha okruglarda bir qator saylov uchastkalariga tashrif buyurishdi.

DIIHB RKCHM kuzatuvchilari RUKning texnik tashkil etilishi va tayyorgarligini umumiy jihatdan ijobiy baholandi, ammo muddatidan oldin ovoz berish paytida berilgan byulletenlarning xavfsizligi yuzasidan xavotirlar bildirildi⁹⁰. Xususan, ko'p hollarda saylov byulletenlari solingan konvertlar muhrlanmagan va ovoz beruvchilar chiqib ketganidan so'ng RUK a'zolarida qolgan. Konvertlar referendum kunigacha RUK raislari shkaflarida saqlangan, bu esa jarayonning ishonchliligi va ehtimoliy qoidabuzarliklarga qarshi tegishli kafolatlarni ta'minlamagan. Muddatidan oldin ovoz berish vaqtida tashrif buyurilgan aksariyat ovoz berish uchastkalarida ovoz beruvchilar faqat elektron

⁸⁹ Oxirgi rasmiy aholini ro'yxatga olish 1989-yilda o'tkazilgan va etnik ozchilik vakillari haqidagi ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2017-yilda yangilangan. DIIHB RKCHMning ba'zi suhbatdoshlari mavjud ma'lumotlarning ishonchliligiga shubha bildirishgan. Aholini yangidan ro'yxatga olish 2023-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan.

⁹⁰ Qonunchilik va Markaziy saylov komissiyasining ko'rsatmalarida referendum o'tkaziladigan kunning tartibi va referendum kuni ovoz berish uchastkasiga kela olmaydiganlar uchun maxsus ovoz berish tartibi, shu jumladan muddatidan oldin ovoz berish va ko'chma (sayyor) ovoz berishni tartibi amal qilishini nazarda tutadi. Ovoz berish jarayoni adolatli bo'lishi uchun maxsus ovoz berish tartiblari tegishli kafolatlar bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

ro'yxatida belgilab qo'yilgan va ular ovoz beruvchilarning qog'ozdagi ro'yxatiga imzo qo'yishmagan, bu esa bu esa, jarayonni tasdiqlashga imkon beruvchi muhim kafolatni yo'qqa chiqargan. MSKning ma'lum qilishicha, muddatidan oldin ovoz berish jarayonida 457 044 ovoz beruvchi ovoz bergan⁹¹.

Referendum kuni tashrif buyurilgan ovoz berish uchastkalarining aksariyati belgilangan vaqtda yoki biroz kechroq ochilgan. Ijobiy tomoni shundaki, ularning aksariyatida harakatchanligi cheklangan saylovchilarga tegishli sharoitlar yaratilgan edi. Ovoz berish uchastkalarida ovoz berish uchun zaruriy materiallar, jumladan, ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun Brayl alifbosidagi saylov byulletenlari mavjud edi. Missiya tashrif buyurgan aksariyat ovoz berish uchastkalari o'zbek va rus tillaridagi ovoz berish byulletenlari bilan ta'minlangan edi.

Referendum kuni tinch o'tdi va ko'p hollarda DIIHB RKCHM kuzatuvchilari ovoz berish jarayonini bemalol ko'rishlari uchun sharoit yaratildi. Ko'p hollarda RUK a'zolari ovoz beruvchilarning shaxsini tegishli tarzda aniqlash tartibiga rioya qilmay, ovoz berish tartibidagi muhim kafolatlarga bee'tibor bo'lishdi. Xususan, DIIHB RKCHM tomonidan RUK a'zolari ovoz beruvchilarga byulletenlarini ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirmasdan yoki elektron tizimda tasdiqlamasdan berish holatlari ko'p kuzatildi. . . . Bundan tashqari, DIIHB RKCHMning guvohi bo'lishicha, RUK a'zolari ovoz beruvchilarni qo'shimcha ovoz beruvchilar ro'yxatiga kiritgan holatlari ko'p bo'lgan, bu esa risoladagidek ovoz berish amaliyotiga zid bo'lib, ovoz beruvchilar ro'yxatlarining to'g'riligi va jarayonning adolatli o'tishini ta'minlash bo'yicha ko'rilgan choralarni chippakka chiqaradi⁹². Kuzatuvchilar MSK tartib-qoidalariga zid bo'lgan bu holatlarni izohlashni so'rashganda, RUK a'zolari ovoz beruvchilarning ko'pchiligi o'z uchastkasida yashamasligini tan oldi. Shuningdek, byulletenlar uchun mo'ljallangan qutilarga bir martada bir dasta byulleten tashlangan uchta aniq holat ham kuzatildi. Ovoz beruvchilar yashirin ovoz berish imkoniga ega bo'lsalar-da, ana shu maxfiylik sharti ba'zi hollarda buzilgan, xususan DIIHB RKCHM RUK a'zolarining ovoz beruvchilarga "Ha" variantiga ovoz berishlari kerakligini uqtirayotgan holatlatlarni kuzatgan⁹³.

Tashrif buyurilgan ba'zi ovoz berish uchastkalariga kelgan ovoz beruvchilar soni ovoz beruvchilar ro'yxatidagi imzolar sonidan sezilarli darajada yuqori bo'lganligi, ovoz berilgan byulletenlar uchun mo'ljallangan shaffof qutilardagi byulletenlar ham sezilarli darajada ko'p bo'lganligi kuzatildi⁹⁴. Shu bilan birga, ko'p hollarda DIIHB RKCHM kuzatuvchilari ovoz beruvchilar ro'yxatlarida bir-biriga o'xshash imzolar qo'yilganligini kuzatishgan. Bu esa, ovoz berishda ishtirok etganlar soni haqidagi rasmiy xabarning to'g'riligiga shubha uyg'otadi. Markaziy saylov komissiyasi referendum kunida unda ishtirok etayotgan saylovchilarning dastlabki sonini bir necha bor e'lon qildi. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, soat 08.00 dan 11.00 gacha 12 083 105 nafar fuqaro ovoz bergan bo'lsa, 17.00 dan 20.00 gacha atigi 871 093 nafar saylovchi ovoz bergan. DIIHB RKCHM tushgacha saylovchilarning sezilarli darajada ko'payishi va oqshom payti ularning keskin kamayishini kuzatmadi.

⁹¹ Shuningdek, xoriyda yashovchi 159 276 nafar fuqaro muddatidan oldin ovoz berish imkoniyatidan foydalangan. Muddatidan oldin ovoz berish davrida DIIHB RKCHM kuzatuvchilari 128 ta saylov uchastkasiga tashrif buyurishdi, ularda ovoz beruvchilarning soni ancha kam bo'lgan.

⁹² DIIHB RKCHM kuzatuvchilari referendum kuni ochilishdan ko'p o'tmay ovoz beruvchilarning qo'shimcha ro'yxatlariga ovoz beruvchilar nomlari kiritilgani haqida xabar berishni boshladi. Masalan, bitta ovoz berish uchastkasida ertalab soat 8:00 dan 9:00 gacha 38 nafar ovoz beruvchi bunday ro'yxatga qo'shilgan. Boshqa ovoz berish uchastkalarida kun davomida qo'shimcha ro'yxatga 600 ga yaqin ovoz beruvchi kiritildi.

⁹³ RUK a'zolari oldida ovoz berishning bir nechta holatlari hamda bir qator guruh va oilaviy ovoz berish holatlari kuzatildi.

⁹⁴ Masalan, ovoz berish uchastkalaridan birida RUK a'zolari DIIHB RKCHMga ertalab soat 8:00 dan 12:00 ga qadar 500 kishi ovoz berganini ma'lum qilishdi, bu esa, har daqiqada o'rtacha ikki-uch nafar ovoz beruvchini tashkil etib, DIIHB RKCHM kuzatuvlaridan keskin farq qiladi. Missiya a'zolarining kuzatuvlariga ko'ra, ovoz berish uchastkasigaa taxminan 40 daqiqa davomida o'rtacha besh nafar ovoz beruvchi kelgan.

Qonunda ko'chma (sayyor) ovoz berishga so'rovning sabablari aniq belgilanmagan, bu esa, bu tartibni suiiste'mol qilishga imkon yaratadi⁹⁵. DIIHB RKCHM ko'chma (sayyor) ovoz berishdan ochiqdan-ochiq noto'g'ri foydalanish, bu bilan esa, ovoz berish jarayonining adolatligiga putur yetgan holatlarini qayd etdi. Ba'zi RUK a'zolari DIIHB RKCHM kuzatuvchilariga ovoz berish uchastkalariga kelmaganlarning ovozlari yig'ish uchun ko'chma (sayyor) ovoz berish tartibidan foydalanilganini tan olib aytdilar.

Sayyor ovoz berish va muddatidan oldin ovoz berish kabi maxsus ovoz berish tartib-qoidalaridan faqat istisno ovoz berish usullari sifatida va faqat tegishli kafolatlar bo'lgandagina foydalanish kerak. Ko'chma qutilardan foydalangan saylovchilar soni barcha darajadagi saylov natijalari bayonnomalariga kiritilishi zarur.

DIIHB RKCHM tomonidan kuzatilgan ovozlarni hisoblash jarayonlarining aksariyatida RUK a'zolari ba'zi asosiy tartib-qoidalarga rioya qilmadilar. Xususan, ovoz beruvchilar imzolari ko'p holatlarda sanab chiqilmadi va ular ovoz berish qutisidan olingan byulletenlar soni bilan solishtirilmadi, ayrim hollarda ovozlarni sanab chiqilishidan oldin ovoz berish natijalari bayonnomalari to'ldirib yuborilgan. DIIHB RKCHM protokoldagi ovoz beruvchilar imzolari soni ovozlarni sanab o'tgandan keyin o'zgartirilgan, foydalanilmagan byulletenlar esa, haqiqiy emas deb topilmagan va alohida o'rab, muhrlanmagan holatlarni kuzatdi. DIIHB RKCHM ovoz beruvchilar ro'yxatida ko'plab bir xil imzolar qo'yilganligi, shuningdek, ovoz berish qutilariga bir martada bir dasta byulleten tashlangan ko'plab holatlarini kuzatdi va bu ovoz berish jarayonining adolatligini savol ostiga qo'ydi⁹⁶. MSK reglamenti RUK bayonnomalarini saylov uchastkalarining maxsus e'lon taxtalariga osib qo'yilishi kerakligini nazarda tutsa-da, kuzatilgan RUKlarning aksariyati bu talabga rioya qilmagan va bu jarayonning shaffofligiga putur yetkazgan.

Ovoz berish kuni tartiblarini amalga oshirishda o'zaro tushunish va izchillikni ta'minlash uchun asosiy protsessual jihatlariga alohida e'tibor qaratgan holda, bunday treninglarga e'tiborni kuchaytirish zarur.

Referendumni yakunlash jarayonlari asosan tartibli kechdi, ammo ularga shaffoflik yetishmadi. Aksariyat hollarda DIIHB RKCHM kuzatuvchilari yakuniy hujjatlarni imzolash jarayonlarini kuzatish uchun tegishli binolarga kirishga ruxsat etilgan, ammo ularga kiritilayotgan ma'lumotlarni ko'rishga ruxsat berilmagan. RUK bayonnomalariga o'zgartirish kiritilgan holatlar, jumladan, byulletenlarni qayta sanab ko'rmagan holda "Ha" va "Yo'q" javobli byulletenlar sonlari o'zgartirilgan holatlar kuzatildi. Ovoz berish natijalarini saylov uchastkalari kesimida e'lon qilish bo'yicha DIIHBning avvalgi uzoq yillik tavsiyalariga qaramay, qonunchilikka bunday talab kiritilmagan.

Xalqaro standartlarga muvofiq, barcha ovozlarni hisoblab chiqish hamda ularni to'g'ri va halollik bilan sanab chiqilishini ta'minlash uchun choralarni ko'rish zarur. Xususan, qonun hujjatlarida ma'lumotlarni har tomonlama tekshirish uchun barcha darajadagi natijalar bayonnomalariga kiritilishi va yakuniy natijalarni saylov uchastkalari kesimida e'lon qilinishi uchun zarur ma'lumotlar ko'zda tutilishi kerak.

⁹⁵ [Venetsiya Komissiyasining Saylov masalalari bo'yicha adolatli amaliyotlar kodeksining](#) izohli hisobotida keltirilishicha "jiddiy firibgarlik xavfi tufayli ko'chma (sayyor) saylov qutilaridan foydalanish ma'qullanmaydi. Shunga qaramay, ulardan foydalanishga to'g'ri kelgan hollarda, firibgarlikning oldini olish uchun, ulardan foydalanish paytida qat'iy shartlar qo'yilishi, jumladan, turli siyosiy partiyalar vakili bo'lgan uchastka saylov komissiyasining bir necha a'zolari bunday qutilarni kuatib turishi zarur".

⁹⁶ [1990-yilgi Kopengagen hujjatining](#) 7.4-bandida ishtirokchi-davlatlar, jumladan, ovozlarni hisoblanishi va halollik bilan hisobot berilishini ta'minlashini nazarda tutadi.

Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotlar markazi (kol-markaz) referendum kuni fuqarolardan kun davomida 240 ta murojlat kelib tushgani haqida xabar berdi⁹⁷. 1-may kuni ertalab MSK dastlabki natijalarni e'lon qildi, unga ko'ra, referendumda ishtirok etganlarning 90,2 foizi tuzatishlarni yoqlab ovoz bergan. Shundan so'ng MSK yig'ilish o'tkazdi va unda aniqlangan uchta qoidabuzarlik holatlari ko'rib chiqildi. Natijada MSK ikkita saylov uchastkasi bo'yicha referendum natijalarini haqiqiy emas deb topdi, uchinchi saylov uchastkasi natijalari bayonnomasiga esa, o'zgartirishlar kiritildi. Shunga qaramay, yakuniy natijalar bayonnomasida "Ha" va "Yo'q" uchun berilgan ovozlar foizi avval e'lon qilingan dastlabki natijalar bilan bir xil bo'ldi. Oliy sud ma'lumotlariga ko'ra, referendum kunidan keyin sudlarga hech qanday shikoyat keolib tushmagan⁹⁸. 1-may kuni Respublika prokuraturasi yettita sud ishi bo'yicha tergov harakatlari olib borilayotganini ma'lum qildi, biroq ichki ishlar vazirligi o'z veb-saytida boshqa holatlar haqida xabar bermadi⁹⁹. Markaziy saylov komissiyasi umumiy ovoz beruvchilarning 84,5% referendumda ishtirok etganini rasman e'lon qildi. 8-may kuni Prezident Mirziyoyev muddatidan ilgari prezidentlik saylovlarini 2023-yil 9-iyulga belgiladi.

XVII. TAVSIYALAR

Ushbu hujjatda keltirilgan barcha tavsiyalar O'zbekistonda referendum va saylovlarni o'tkazishni yanada takomillashtirish hamda ularni YXHT majburiyatlari, qolaversa, demokratik referendum va saylovlar bo'yicha boshqa xalqaro majburiyatlar va standartlarga to'liq muvofiqlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida taqdim etilgan. Mazkur tavsiyalar DIHHBning hali ko'rib chiqilmagan avvalgi tavsiyalari bilan birgalikda ko'rib chiqilishi zarur. DIHHB kelgusida hokimiyat organlariga referendum va saylov jarayonlarini takomillashtirish va ushbu hamda avvalgi hisobotlarda keltirilgan tavsiyalarni ko'rib chiqishda yordam berishga tayyor¹⁰⁰.

A. USTUVOR MAZMUNDAGI TAVSIYALAR

1. Uyushmalar, yig'ilishlar va so'z erkinligini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi qayta ko'rib chiqilishi, unda ularni amalga oshirishdagi har qanday cheklovlar zarurligi, mutanosib va xalqaro standartlarga muvofiq qo'llanilishini ta'minlash lozim.
2. Haqiqiy siyosiy plyuralizmni rag'batlantirish uchun siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati tashkilotlarini ro'yxatga olishning og'ir huquqiy va ma'muriy tartib-qoidalarini qayta ko'rib chiqish va xalqaro majburiyatlar va standartlarga muvofiqlashtirish kerak.
3. Tuhmat va boshqa tegishli qoidalar, jumladan, "haqorat" va "yolg'on ma'lumot"ni tarqatish xalqaro standartlarga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiluvchi harakat sifatida talqin

⁹⁷ OAV va MSK bergan xabarlarga ko'ra, internetda 14-ROKda ikki marta ovoz bergan ayolning surati tarqaldi va komissiya a'zolari tekshirib, bu iddaolarni rad etdi. 14-ROKdagi boshqa videoda RUK a'zosi va mahalla vakili bir oila a'zolari nomidan 16 ta ovoz berish byulletenini belgilagan holat tasvirlangan; RUK raisi voqeani ko'rib qolib, bu byulletenlarni haqiqiy emas deb topdi va bu holat prokuratura tomonidan RUK bilan hamkorlikda tergov o'rganilmoqda.

⁹⁸ 6 maygacha, ya'ni referendum bilan bog'liq shikoyat yoki murojaatlarni topshirishning qonuniy muddati besh kun.

⁹⁹ Yettitasi Toshkentdan, bittasi Samarqanddan va bittasi Namangandan.

¹⁰⁰ [1990-yilgi YXHT Istanbul hujjatining](#) 25-bandida YXHTga a'zo davlatlar "DIHHBning saylovga oid baholashlari va tavsiyalarini zudlik bilan kuzatib borish" majburiyatini olishlari kerakligi ta'kidlangan. Avvalgi tavsiyalarning bajarilishi DIHHB LROM tomonidan quyidagicha baholanadi: 2019-yilgi Parlament saylovlari bo'yicha yakuniy hisobotning ([2019-yilgi Yakuniy hisobot](#)) 12, 17, 31 va 32 tavsiyalari to'liq bajarildi. R2019-yilgi Yakuniy hisobotning 15, 16 va 30-bandlari hamda 2021-yilgi Prezident saylovi bo'yicha yakuniy hisobotning ([2021-yilgi Yakuniy hisobot](#)) 12-tavsiyasi deyarli amalga oshirildi. 2019-yilgi Yakuniy hisobotning 10, 18 va 28 tavsiyalari hamda 2021-yilgi Yakuniy hisobotning 3, 9 va 11 tavsiyalari qisman bajarildi. Bir qator tavsiyalar referendum jarayoniga taalluqli bo'lmagani uchun baholanmagan. Shuningdek, DIHHBning [Saylov tavsiyalari bo'yicha ma'lumotlar bazasiga qarang](#).

qilinmasligi zarur. Tuhmatga oid qonunlar faqat fuqarolik xarakteriga ega bo'lishi va huquqiy himoyaning fuqaroviy vositalari moddiy huquqlardan ustun bo'lishi kerak.

4. Saylovoldi kampaniyasi va uni moliyalashtirish, ommaviy axborot vositalarida xolis va muvozanatli yoritish kabi jarayonlarning muhim jihatlarini tartibga solish uchun referendum o'tkazishning huquqiy bazasi qayta ko'rib chiqilishi zarur.
5. Referendum o'tkazish bo'yicha barcha darajadagi komissiya a'zolarini ko'rsatish va tayinlash masalalari ijro hokimiyati, mahalliy hokimliklar va mahallalardan mustaqil ravishda referendum o'tkazish organlarini shakllantirishni nazarda tutgan holda qayta ko'rib chiqilishi lozim.
6. Ilg'or xalqaro amaliyotga ko'ra, qo'shimcha ro'yxatlardan faqat saylovchilar ro'yxatlari yakuniy e'lon qilingan kundan boshlab ovoz berish kunigacha yashash joyini o'zgartirgan shaxslarga ruxsat berilishi mumkin edi. Bunday tartibni noto'g'ri ishlatishga qarshi tegishli himoya choralari mavjud bo'lishi zarur.
7. YXHT majburiyatlariga muvofiq, qonunchilik fuqarolarning saylovlarni mustaqil kuzatishiga ruxsat berishi zarur.
8. Xalqaro standartlarga muvofiq, barcha ovozlarni hisoblab chiqish hamda ularni to'g'ri va halollik bilan sanab chiqilishini ta'minlash uchun choralar ko'rish zarur. Xususan, qonun hujjatlarida ma'lumotlarni har tomonlama tekshirish uchun barcha darajadagi natijalar bayonnomalari kiritilishi va yakuniy natijalarni saylov uchastkalari kesimida e'lon qilinishi uchun zarur ma'lumotlar ko'zda tutilishi kerak.

B. BOSHQA TAVSIYALAR

Huquqiy baza

9. Referendumda taklif etilayotgan barcha tuzatishlar to'g'risida xolis va muvozanatli ma'lumotlar saylovchilarga ularning ovoz berish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birga taqdim etilishi zarur.

Referendum tizimi

10. Saylovchining xohish-irodasini ifoda etishni yanada osonlashtirish uchun Konstitutsiyani bir nechta alohida jihatlar bo'yicha qayta ko'rib chiqishda taklif etilayotgan o'zgartirishlar alohida javob berish uchun alohida savollar sifatida taqdim etilishi mumkin edi.

Referendumni boshqarish

11. Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tayyorlangan saylovchilarga oid axborot materiallari referendum o'tkazish bo'yicha ma'muriyatning betarafligini ta'minlashi zarur. Saylov huquqini amalga oshirishning muhim jihatlarini aniq ko'rsatilishi lozim.

Saylovchilarni ro'yxatga olish

12. Saylov jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq muhim o'zgarishlar keng jamoatchilikka xabardor qilingan holda amalga oshirilishi zarur. Oshkoralikni oshirish uchun hokimiyat saylovchilarga texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'proq ma'lumot berishi kerak.

Referendum kampaniyasi

13. Huquqiy baza davlat va mahalliy mansabdor shaxslar tomonidan mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishning oldini olishning samarali kafolatlarini o'z ichiga olishi, davlat xizmatchilariga bosim o'tkazishni taqiqlashi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar uchun mutanosib jazo choralarini ko'rishi zarur.

Ovoz berish kampaniyalarini moliyalashtirish

14. Shaffoflik va hisobdorlikni oshirish uchun referendum kampaniyasini moliyalashtirish jarayoni aniq tartibga solinishi zarur. Barcha manfaatdor tomonlar va nazorat qiluvchi organ uchun daromadlar va xarajatlar to'g'risida batafsil hisobot berish talablari mavjud bo'lishi kerak.

Ommaviy axborot vositalari

15. Barcha asosiy erkinliklar, shu jumladan so'z erkinligiga cheklovlar qonuniylik, zarurat va mutanosiblik tamoyillariga qat'iy muvofiq bo'lishi zarur.
16. Fikrlar xilma-xilligini targ'ib qilish uchun Milliy teleradiokompaniyani rahbariyati mustaqil tayinlanuvchi va ijtomoiy mandati aniq belgilangan chinakam ommaviy axborot vositalariga aylantirish tavsiya etiladi. Davlat teleradiokompaniyasini moliyalashtirish modeli ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashi zarur. Bunday ommaviy axborot vositalaridan yangiliklar, dolzarb voqealar va muhokama dasturlarida, shu jumladan referendumni yoritishda muvozanatli va xolis xabar berishlari talab qilinishi lozim.
17. So'z erkinligi huquqidan samarali foydalanishni ta'minlash uchun Internetdagi har qanday cheklovlar shaffof bo'lishi, qonun bilan aniq belgilanishi va sud nazorati ostida bo'lishi zarur.

Referendumda nizolarni hal qilish masalasi

18. Qonunchilikka barcha darajadagi referendum natijalariga e'tiroz bildirish imkoniyatini aniq belgilab beruvchi o'zgartirishlar kiritilishi va bunday shikoyatlar bo'yicha yurisdiksiyani aniq belgilashi lozim.
19. Markaziy saylov komissiyasi nizolarni hal etish jarayonining shaffofligini oshirish, shu jumladan, referendumga doir barcha shikoyatlar, murojaatlar va tegishli qarorlar bilan ochiq tanishish mumkin bo'lgan maxsus reestrni yaratish bo'yicha qo'shimcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishi lozim.
20. Huquqiy himoyaning samarali choralarni ta'minlash uchun, vakolatli organlar murojaatlarning mazmunini to'liq va xolis ko'rib chiqishlari hamda xolis va shaffof ish olib borishlari lozim.

Xotin-qizlar ishtiroki

21. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini yanada oshirish bo'yicha alohida chora-tadbirlar ko'rish mumkin. Vakillik darajasi kam bo'lgan jinsdagi nomzodlarning saylovda ishtirok etishi uchun yanada qulay shart-sharoitlarni ta'minlash uchun qo'shimcha imtiyozlar ko'rib chiqilishi mumkin. Siyosiy partiyalar gender muvozanatini yanada oshirish va ayollarni nomzodlar ro'yxatiga saylanadigan lavozimlarga joylashtirish yo'llarini ko'rib chiqishi mumkin.

Referendum kuni

22. Ovoz berish kuni tartiblarini amalga oshirishda o'zaro tushunish va izchillikni ta'minlash uchun asosiy protsessual jihatlarga alohida e'tibor qaratgan holda, bunday treninglarga e'tiborni kuchaytirish zarur.
23. Sayyor ovoz berish va muddatidan oldin ovoz berish kabi maxsus ovoz berish tartib-qoidalaridan faqat istisno ovoz berish usullari sifatida va faqat tegishli kafolatlar bo'lgandagina foydalanish kerak. Ko'chma qutilardan foydalangan saylovchilar soni barcha darajadagi saylov natijalari bayonnomalariga kiritilishi zarur.

I ILOVA YAKUNIY NATIJALAR¹⁰¹

		Foizi
Ro'yxatga olingan ovoz beruvchilar soni	19722809	
Ishtirok etganlar soni	16667097	85,51
Yoqlab ovoz berganlar	15034608	90,21
Qarshi ovoz berganlar	1558817	9,35
Yaroqsiz deb topilgan ovozlar soni	73672	

¹⁰¹ Manba: [MSKning referendum natijalari bo'yicha 1246-qarori](#).

II ILOVA REFERENDUMNI KUZATISH BO'YICHA CHEKLANGAN MISSIYANING KUZATUVCHILARI RO'YXATI

DIHHB RKCHM uzoq muddatli kuzatuvchilari

Irina Shuliankova	Belarus Respublikasi
Marketa Nekvindova	Chex Respublikasi
Maria Vieno Irmeli	Finlandiya
Mishel Aleksis Silvain (Michel Alexis Sylvain)	Fransiya
Maev Sonya Dali (Maeve Sonia Daly)	Fransiya
Mariam Aduashvili	Gruziya
Yoxanna Ekiza Berger (Johanna Elisa Berger)	Germaniya
Andryu Payas (Andrew Pius)	Irlandiya
Anna Kristina Kropelin (Anne Christine Kroepelien)	Norvegiya
Ivan Fetisov	Rossiya Federatsiyasi
Milosh Antish Toplika (Miloš Antić Toplica)	Serbiya
Piter Volberg (Peter Wällberg)	Shvetsiya
Harold Ueyn Otto (Harold Wayne Otto)	Amerika Qo'shma Shtatlari
Sheyla Jagab (Sheila Jaghab)	Amerika Qo'shma Shtatlari

DIHHB RKCHM Asosiy jamoasi a'zolari

Elchi Albert Yonsson (Albert Jónsson)	Islandiya	Missiya rahbari
Lusin Badalyan (Lusine Badalyan)	Armaniston	
Misho Imamovich (Mišo Imamović)	Bosniya va Gertsegovina	
Svetozar Kolibarski	Bolgariya	
Elma Shehalich (Elma Šehalić)	Germaniya	
Eyrin Skojo (Eirini Skouzou)	Gretsiya	
Peter Marron	Irlandiya	
Karlo Pappalardo Fisher (Carlo Pappalardo Fischer)	Italiya	
Ahmad Rasuli	Qirg'iziston	
Joanna Porchinska (Joanna Porczynska)	Polsha	
Svetlana Chetaykina	Rossiya Federatsiyasi	

DIIHB HAQIDA

YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIIHB) YXHTning asosiy instituti bo'lib, uning vazifasi ishtirokchi davlatlarga "inson huquqlari va asosiy erkinliklarini to'liq hurmat qilinishini ta'minlash, qonun ustuvorligiga rioya qilish, demokratiya tamoyillarini ilgari surish va (...) , demokratik institutlarni mustahkamlash va himoya qilish, shuningdek, butun jamiyatda bag'rikenglikni targ'ib qilish"dan iborat (1992 yilgi Xelsinki sammiti hujjati). Bu YXHTning inson mezonini deb ataladi.

DIIHB Varshavada (Polsha) 1990-yildagi Parij sammitida Erkin saylovlar byurosi sifatida tashkil etilgan va 1991-yil may oyida ish boshlagan. Bir yil o'tgach, idora nomi inson huquqlari va demokratlashtirishni o'z ichiga olgan kengaytirilgan vakolatni aks ettirish uchun o'zgartirildi. Bugungi kunda u yerda 150 dan ortiq xodim faoliyat ko'rsatadi.

DIIHB Yevropadagi **saylovlarni kuzatish** sohasida yetakchi agentlik hisoblanadi. Har yili u YXHT mintaqasidagi saylovlar YXHT majburiyatlari, demokratik saylovlar bo'yicha boshqa xalqaro majburiyatlar va standartlar hamda milliy qonunchilikka muvofiq o'tganligini baholash uchun minglab kuzatuvchilarni joylashtirishni muvofiqlashtiradi va tashkil qiladi. Uning o'ziga xos metodologiyasi saylov jarayonini yaxlit va chuqur o'rganish imkonini beradi. Ko'makchi loyihalar orqali DIIHB ishtirokchi davlatlarga saylov tizimini yaxshilashda yordam beradi.

Ofisning demokratlashtirish bo'yicha faoliyati quyidagilardan iborat: qonun ustuvorligi, qonunchilikni qo'llab-quvvatlash, **demokratik boshqaruv**, migratsiya va harakat erkinligi va gender tengligi. YXHT/DIIHB har yili demokratik tuzilmalarni rivojlantirishga intilib, bir qator maqsadli yordam dasturlarini amalga oshiradi.

DIIHB, shuningdek, ishtirokchi davlatlarga YXHTning inson mezonlari bo'yicha majburiyatlariga muvofiq **inson huquqlari va asosiy erkinliklarini** ilgari surish va himoya qilish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda ko'maklashadi. Bunga terrorizmga qarshi kurashda insoh huquqlari, odam savdosi jabrdiydalarining inson huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, inson huquqlari bo'yicha ta'lim va treninglar, inson huquqlari monitoringi va hisobdorlik, shuningdek, inson huquqlari va xotin-qizlar xavfsizligi kabi mavzular bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish, salohiyatni oshirish va ekspert materiallari bilan ta'minlash maqsadida turli hamkorlar bilan yaqindan ishlash orqali erishiladi.

Bag'rikenglik va kamsitmaslik sohasida DIIHB ishtirokchi davlatlarga nafratga asoslangan jinoyatlar va irqchilik, ksenofobiya, antisemitizm va murossasizlikning boshqa shakllariga qarshi choralarni kuchaytirishda yordam beradi. DIIHBning bag'rikenglik va kamsitmaslik bilan bog'liq faoliyati quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan: qonunchilik; huquqni muhofaza qilish organlarini tayyorlash; nafratga asoslangan jinoyatlar va hodisalarni kuzatish, hisobot berish va ularga tegishli javob berish; shuningdek, bag'rikenglik, hurmat va o'zaro tushunishni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim faoliyati.

DIIHB ishtirokchi davlatlarga ularning **roma va sinti** (turli hududlarda yashovchi lo'li elatining nomlanishi) bo'yicha siyosatiga oid maslahatlar beradi. Bu roma va sinti elatlari jamoalari o'rtasida salohiyatni oshirish va aloqa o'rnatishni targ'ib qiladi hamda bu elatlarning turli siyosatlarni ishlab chiqish organlarida ishtirok etishini rag'batlantiradi.

DIIHBning barcha faoliyati YXHTga a'zo davlatlar, YXHT institutlari va obyektlardagi ishlar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqin muvofiqlashtirish va hamkorlikda amalga oshiriladi.

Batafsil ma'lumot uchun DIIHB veb-saytiga kirishingiz mumkin: (www.osce.org/odihr).